

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

MAGISTRATURA BO`LIMI

O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI MUTAXASSISLIGI

BITIRUVCHISI RAJABOVA NAFISANING

“RAUF PARFI SHE’RIYATIDA BADIY

SAN’ATLAR”

mavzusidagi

M A G I S T R L I K D I S S E R T A T S I Y A S I

Annotatsiya

O'zbek adabiyotining istedadli shoirlaridan biri Rauf Parfining go'zal misralari, qator tarjimalaridagi o'ziga xos xususiyatlar yaqqol ko'zga tashlanadi. Ijodkorning badiiy mahoratini boshqalardan ajratib turadigan yorqin qirralaridan biri ham tilidagi o'ziga xoslikdir. Uning ijodida o'xshatish, metafora, jonlantirish kabi badiiy til vositalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Istedodli o'zbek shoiri Rauf Parfi she'riyat osmonida tutgan o'rni beqiyosdir. Uning she'rlarida ilgari surilgan g'oyalar va so'z qo'llash mahorati e'tirof-ga sazovordir. Shoir ijodini, uning so'z qo'llash mahoratini o'rganish uchun Rauf Parfi she'riyatidagi badiiy san'atlarni tahlil qilish lozim. Bunda Rauf Parfi she'riyatida qo'llangan lafziy va ma'naviy san'atlar hamda bir bandning o'zida bir nechta she'riy san'atlardan foydalanganligini tahlil qilish joizdir.

Mundarija:

Kirish.....	4-7
I.BOB. Rauf Parfi she`riyatida      qo`llangan ma`naviy san`atlar.....	8-30
1.1 Shoir ijodida talmih san`atining ishtiroki	8-13
1.2 Rauf Parfi she`riyatida tashbih san`atini qo`llashdagi mahorat..	13-19
1.3 Tashxis va ba`zi ma`naviy san`atlarning qo`llanishi	20-29
Xulosa.....	30
II.BOB. Lafziy san`atlarning shoir ijodidagi o`rni.....	31-59
2.1 Tajnis san`atining shoir ijodidagi o`rni.....	31-36
2.2 Rauf Parfi she`riyatida tazod san`atini qo`llashdagi mahorat..	36-43
2.3 Takrir, tardu aks , tanosub, ishtiyoq va ba`zi lafziy san`atlarning ijodkor she`riyatidagi o`rni.....	43-57
Xulosa.....	58
III.BOB. Rauf Parfi ijodida bir paytning o`zida birdan ortiq san`atlarning qo`llanishi.....	59-75
Umumiy xulosa.....	76-77
Foydalanilgan adabiyotlar.....	78-80

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi sharofati boshqa sohalar qatorida ma’naviy hayotimizda ham ulkan o‘zgarishlarga, yangilanishlarga keng yo‘l ochdi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov ta’kidlaganidek: “...Eng muhim vazifa shundan iboratki, o‘zligimizni teran anglab, mutafakkir bobolarimiz, aziz avliyolarimiz qoldirgan bebaho merosni asrab-avaylab yanada boyitishimiz, ulug‘ ajdodlarimiz ishining munosib davomchilari bo‘lmog‘imiz darkor ”¹.

“Ma’naviyatni shakllantirishga bevosita ta’sir qiladigan muhim hayotiy omil – ta’lim-tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’lumki, ota-bobolarimiz qadimdan bebaho boylik bo‘lmish ilm-u ma’rifat, ta’lim va tarbiyaning inson kamoloti va millat ravnaqining eng asosiy sharti va garovi deb bilganlar”².

Yurtimizda yoshlarning ta’lim-tarbiya olishiga katta ahamiyat qaratilgan. Barkamol va komil insonni tarbiyalash mamlakatimizda muhim masalalardan biridir. Prezidentimiz Islom Karimov bu masalada shunday fikr bildiradi: “Biz komil inson deganda , avvalo, ongi yuksak fikrlay oladigan bilimli, ma’rifatli kishilarni tushunamiz ”³.

Eng avvalo, yoshlarni kafolatlangan ta’lim-tarbiyaga yo‘naltirish uchun o‘zligimizni anglashni o‘rgatmog‘imiz lozim. O‘zlikni anglash milliy qadriyatlarni hurmatlash, ona tilimizni qadrlash va eng avvalo, adabiyotimizga e’tibordan boshlanadi.

O‘zbek adabiyotida yirik iste’dodli yozuvchi va shoirlar bisyordir. Har qanday ijodkorning badiiy mahorati u yaratgan badiiy asarlar tilida namoyon bo‘ladi. Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, o‘ziga xos dunyo-qarashi, teran idroki, tabiatdagi boshqalar ko‘ra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni go‘zal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana ko‘pgina

¹ Karimov I A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas’ulmiz .Toshkent. 2001. 12-bet.

² Karimov I A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008. 60-bet

³ Kartimov I A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 1999. 81-bet

boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz soʻz boyligiga ega boʻlishi, soʻzning taʼsir qudratini his eta olishi, har bir soʻzni maʼno nozikligini ilgʻab olishi, soʻz oʻyinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida oʻrin tutadi.

Mavzuning dolzarbligi. Oʻzbek adabiyotining istedadli shoirlaridan biri Rauf Parfining goʻzal misralari, qator tarjimalaridagi oʻziga xos xususiyatlar yaqqol koʻzga tashlanadi. Ijodkorning badiiy mahoratini boshqalardan ajratib turadigan yorqin qirralaridan biri ham tilidagi oʻziga xoslikdir. Uning ijodida oʻxshatish, metafora, jonlantirish kabi badiiy til vositalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Istedodli oʻzbek shoiri Rauf Parfi sheʼriyat osmonida tutgan oʻrni beqiyosdir. Uning sheʼrlarida ilgari surilgan gʻoyalar va soʻz qoʻllash mahorati eʼtirofga sazovordir. Shoir ijodini, uning soʻz qoʻllash mahoratini oʻrganish uchun Rauf Parfi sheʼriyatidagi badiiy sanʼatlarni tahlil qilish lozim. Bunda Rauf Parfi sheʼriyatida qoʻllangan lafziy va maʼnaviy sanʼatlar hamda bir bandning oʻzida bir nechta sheʼriy sanʼatlardan foydalanganligini tahlil qilish joizdir.

Yuqorida qayd etilgan masalalar esa mazkur mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning oʻrganilish darajasi. Sheʼriy sanatlar yuzasidan talaygina ishlar qilingan. A. Hojiahmedov¹, T. Boboyev², B. Zaripov³ kabi tadqiqotchilar ishida bu oʻz aksini topgan. Rauf Parfi ijodining adabiy merosi oʻrganilgan, ammo uning asarlaridagi sheʼriy sanʼatlarga yetarlicha eʼtibor qaratilmagan. Mazkur magistlik dissertatsiyamiz bu mavzudagi chuqurroq oʻrganilgan birinchi ilmiy ishdur.

¹ Hojiahmedov.A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent. 1999.

Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlarni bilasizmi? Toshkent. 1999.

Hojiahmedov A. Sheʼriy sanʼatlar va mumtoz qofiya. Toshkent: "Sharq",1998.

² Boboyev T. Sheʼr ilmi taʼlimi. Toshkent, 1996.

³ Zaripov B. Alisher Navoiy asarlari tilida zoonimlar. Toshkent: "Fan", 2007.

Magistlik dissertatsiyasining maqsad va vazifalari. Magistlik dissertatsiyasining asosiy maqsadi Rauf Parfi she'riyatining badiiy xususiyatiga e'tibor qaratish, ijodkor she'riyatidagi badiiy san'atlar tahlil qilib sharhlash.

Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni amalga oshirdik:

- Rauf Parfi ijodi bilan tanishish;
- Ijodkor she'rlaridagi g'oyalar va fikrlarni idrok qilish;
- Rauf Parfi ijodidagi lafziy san'atlarni aniqlash va izohlash ;
- Shoir ijodidagi ma'naviy san'atlarning o'рни va mazmun-mohiyatini aniqlash ;
- Birdan ortiq she'riy san'atlarning shoir ijodidagi aksini tahlil qilish ;
- Rauf Parfi ijodi va unda qo'llangan she'riy san'atlar haqida xulosalar chiqarish.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi. Magistlik dissertatsiyasining yangiligi shundan iboratki, mazkur ishda Rauf Parfi she'riyatidagi badiiy san'atlar tahlil qilinib sharhlandi. Biz Rauf Parfining ajoyib so'z ustasi, mohir ijodkorligini yaxshi bilamiz. Ko'p tadqiqotlar , ilmiy ishlar ijodkor asarlarini adabiy jihatdan o'rganishga qaratilgan, ammo shoir ijodining til xususiyatlari yetarlicha tahlil qilinmagan.

Ishda Rauf Parfi ijodidagi ma'naviy va lafziy san'atlarni tahlil qilish bilan birga ijodkor asarlaridagi faqat shoirning o'ziga xos badiiyat, falsafa, ma'no-mohiyatlarni ham ochib berishga harakat qildik.

Tadqiqotning manbalari. Tadqiqot vazifalari va tahlil uslubi taqozosiga ko'ra ishda quyidagi asosiy manbalarga tayandik: she'riy san'atlarga doir turli ilmiy adabiyotlar, darsliklar, qo'llanmalar, maqolalar hamda internet ma'lumotlaridan foydalandik. Shuningdek, shoirning quyidagi asarlari ham manba vazifasini o'tadi:

1. Rauf Parfi. Sabr daraxti. Toshkent: "G'afur G'ulom", 1986.
2. Rauf Parfi. Ona Turkiston. Internet. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.

3. Rauf Parfi. Tavba. Internet. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.

Tadqiqotning metodologik asosi va ilmiy metodi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Abdug‘aniyevich Karimovning milliy istiqlol mafkurasi, adabiy-madaniy meroslar va ularni tahlil qilish va o‘rganishga oid asarlari tadqiqotning metodologik asosini tashkil etadi. Shuningdek, ishning maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, hozirgi adabiyotshunoslik erishgan ilmiy-nazariy yutuqlar va yangicha qarashlarga tayandik.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati. Rauf Parfi asarlarining badiiy va leksik xususiyatlari birinchi marta bitiruv malakaviy ish sifatida o‘rganilayotganligi ishning ilmiy yangiligini tashkil etadi.

Shoir ijodidagi badiiy vositalar, ulardan foydalanishda ijodkor mahoratini yoritib berish bo‘yicha qilingan tahlillarning mavjudligi va ularning ilmiy xulosalanganligi magistlik dissertatsiyasining ilmiy qimmatini oshiradi.

Magistlik dissertatsiyasining tuzulishi va hajmi. Magistlik dissertatsiyasi kirish, olti faslni o‘z ichiga olgan uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan iborat. Ishning umumiy hajmi 80 bet.

I.BOB. Rauf Parfi she'riyatida qo'llangan ma'naviy san'atlar.

Haqiqiy ijodkor o'z dardini ijodi mahsuliga aylantirmay, balki o'zgalar dardiga malham bo'ladi, insonlar qalbiga ezgulik urug'larini ekadi. Fasllar almashinishi tabiatning o'zgarmas qonuniyatining tabiiy jarayoni hosilasi. Badiiy adabiyotda ham nuroniy avlodlar o'rniga navqiron nasllarning kirib kelishi ma'naviy ehtiyoj, ruhiy zarurat taqozosidir. Bu — badiiy-estetik tafakkurda hamisha yangi did va estetik saviyalarning zohir bo'lishi demakdir. Bu — tabiat va jamiyat hodisalarini, odam va olam sir-sinoatlarini yangicha tushunish, yangi obrazlar va badiiy vositalar bilan tushuntirish san'ati demakdir.

Asl shoirlarning tarjimai holi nihoyatda qisqa, taqdirlari esa uzun bo'ladi. Tug'ilish-u so'nggi nafas oralig'ida kechgan umr, bu — yorug' qismat, achchiq taqdir. Tun bilan kunlarning, shom bilan tonglarning o'rin almashinishi, bu — tabiat hayotining shunchaki bir odatiy ko'rinishi, holati emas. U — ezgulik bilan yovuzlik, mutelik bilan erkin nafas, yaxshilik bilan yomonlik, adolat bilan yolg'on-riyo, nur bilan zulmat o'rtasida kechadigan azaliy va abadiy kurash, muhoraba jarayonlari. Qismat — bu she'riyat. Uni birovga cho'pchak qilib aytish qiyin; yolg'iz dil-dildan chuqur tuyish, his etish mumkin, xolos.

Rauf Parfi qo'liga qalam tutgan asnolardan e'tiboran she'r — uning uchun qismatga, bir umrlik taqdirga aylangan edi. Aslida, o'zbekning shoiri bo'lish nihoyatda mas'uliyatli. She'riyatda shoirning birovdan yashiradigan maxfiy narsasi yo'q. Faqat she'rning sir-asrori cheksiz imkoniyatlari chegarasizdir. Bu — badiiyatga aylangan qismat. Taqdirning olov ko'zlarini ko'ngliga joylagan she'r. Rauf Parfi ilk she'rlaridanoq dunyoqarashi, ruhiyati, ma'naviy e'tiqodi shakllangan ijodkor sifatida o'zligini namoyon qildi.

“Modernizm bugungi o'zbek she'riyatining jiddiy uslubiy yo'nalishlaridan bo'lib, milliy poeziyamizning yanada ta'sirchan va tarovatli bo'lishini ta'minlayotir. Bugungi o'zbek she'riyatida o'ziga xos yo'nalish yaratgan shoir

Rauf Parfi milliy modern she'riyatining asoschilaridan biri va eng yirik vakilidir", - deb yozgan edi professor Qozoqboy Yo'ldoshev.¹

Mazkur bituruv malakaviy ishimizda quyidagi asar va ilmiy adabiyotlardan foydalandik va ularni quyidagi shartli qisqartmalar bilan ifodaladik:

1. Rauf Parfi. Sabr daraxti. Toshkent: "G'afur G'ulom", 1986. – (**SD**)
2. Rauf Parfi. Ona Turkiston. Internet. WWW. ziyouz. com kutubxonasi. – (**OT**)
3. Rauf Parfi. Tavba. Internet. WWW. ziyouz. com kutubxonasi. – (**T**)
4. O'zbek tilininig izohli lug'ati. 5 jildlik. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensklopediyasi " Davlat ilmiy nashriyoti, 2006, 2006, 2007, 2008. 2008. – (**O'TIL**)
5. Hojiyev A. O'zbek tili sinonimlarning izohli lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi", 1974. – (**O'TSIL**)
6. Rahmatullayev Sh va boshqalar. O'zbek tili antonimlarning izohli lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi", 1980. – (**O'TAIL**)
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. Toshkent: "O'qituvchi", 1984. – (**O'TOIL**)

Rauf Parfi o'zining mazmundor ijodi bilan she'riyat muxlislarining mehrini qozongan ijodkordir. Turli mavzularni qamragan Rauf Parfi ijodi kitobxonning dil torlarini nozik ma'nosi bilan chertadi. Uning she'riyatidagi o'ziga xos falsafa bilan birga so'z qo'llash mahoratini alohida ta'kidlash lozim. Shu bilan birga ijodkor she'rlarida rang-barang badiiy san'atlarni ham o'rinli qo'llagan. Shu jumladan, shoir talmih san'atining ajoyib na'munalarini yaratib, poetik maqsadini amalga oshirgan.

¹ Internet. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.

Talmih* (“**nazar solmoq**”) sheʼr yoki nasrda mashhur tarixiy voqealar, afsonalar, adabiy asar qahromonlarni, mashhur shaxslar yoki maqollarga ishora qilmoq sanʼatidir¹.

Rauf Parfi ijodida badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalanilgan. Jumladan, talmih sanʼati ijodkorning falsafiy ruhdagi sheʼrlariga yangi ijodiy ruh bagʻishlaydi. Shoir ijodida qoʻllanilgan talmih sanʼatining quyidagi mavzu guruhlarini uchratamiz:

1. Tarixiy shaxslar nomi bilan bogʻliq talmihlar:

Tunlar bosib kelar dunyo hasrati,

Kunlar gizli tugʻyon, bosib kelar sheʼr.

Nechuk qismat erur, shoir qismati?!

Tushlarimni buzar hazrat **Alisher...** (T 16-bet)

Mazkur misrada ijodkor shoirlik qismati haqida taʼsirli va asosli fikrlarni bildirib, turkiy adabiyotini rivojiga hissa qoʻshgan XV asrda yashab ijod qilgan **Alisher Navoiy** nomiga ishora qilgan. Yana bir bandda shoir ona vatan muhabbati hamda ajdodlar yodi haqida teran fikrlar bildirib, fors-tojik adabiyotining mashhur mutafakkiri **Abulqosim Tusiy (Fidavsiy)** nomi keltirilgan:

Firdavsiy bir zamon aytgani kabi

Har ne oʻtkinchidir, fanoning oʻzi,

Faqat ikki narsa qolur abadiy –

Botirning shavkati, dononing soʻzi. (T 5-bet)

* Baʼzi adabiyotlarda talmeh tarzida qoʻllanilgan. Biz adabiyotshunos olim Anvar Hojiahmedovning “Mumtoz badiiyat malohati” asariga tayandik.

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “Sharq” nashriyoti, 1999. 41-bet.

2. **Asar qahramonlari nomi bilan bog`liq talmihlar.** Shoir she`rlarida asarlarga murojaat qilib, mashhur asar qahramonlari nomini keltiradi. Bu orqali ijodkor asar qahramonlariga tarif-u tashbihlar keltirib, insonlarni shunday mashhur shaxslarga xos xislatlar o`zlarida mujassam etishga chorlaydi. Bir she`rida turkiy tillar rivojiga hissa qo`shgan bobokalonimiz Alisher Navoiyning “Xamsa” dostonlaridan “sevgi haqidagi eng dardli qissa” deb ta`riflangan “Layli va Majnun” dagi qahramonlarga ishora qilgan:

Yuragim zindoni, bir yalong`och dor,

Sollanib turadir faqat men uchun.

Bunda bir muhabbat, zahri qotil bor,

Bu zindonda bir **Laylo bor, bir , Majnun.**

Rauf Parfi hatto jahon adabiyoti namoyondasi **Vilyam Shekspir** ijodiga ham murojaat etib, uning mashhur asari “Hamlet”ning bosh qahramoni **Hamlet** obrazini qo`llagan:

Zamondoshim mening, jafokash **Hamlet,**

O, do`stim, dunyoda xunxorlarni ko`r,

Ojizdir bu qalam, ojiz tasavvur.

3. **Mifalogik obrazlar nomi bilan bog`liq talmihlar.** Rauf Parfi she`riyatida afsonaviy qahramonlar nomi bilan bog`liq baytlar ham uchraydi. Shunday obrazlardan biri **Semurg`dir.**

**Semurg`**– Sharq xalqlari og`zaki poetik ijodidagi afsonaviy qush obrazi; osmonda uchish , uzoq manzilni yaqin qilish haqidagi asriy orzu umidlarning ramziy ifodasi.

Dastlab Eron mifalogiyasida paydo bo'lgan . “Avesto”da senemurg` shaklida ishlatilgan¹.

Ijodkor esa o'zbek xalq ertagi va afsonalarida uchraydigan Semurg` qushini qahramonning do'sti, himoyachisi, hamrohi, uni “yetti zulmat ichi” dan olib chiquvchi fantaslik qush sifatida gavdalantirgan:

Semurg` qushim, podsho qushim,xush kelding,

Yetti gumbaz, yetti vodiylar sarvari.

Vasling ne`matidan bahravar qilding,

Intizor joningman, yo'lsiz, sarsari. (T 6-bet)

Bizga ma'lumki, zardushtiylik ta'limotining muqaddas kitobi **“Avesto”da Ahuramazda** ezgulik ma'mudi sifatida e'tirof qilinadi. Ahuramazda yozma adabiyotda hurmuzd nomi bilan ham yuritiladi. Shoir bu baytida insonlarni **Hurmuzdek** ezgulik qilishga va yovuzlikka qarshi kurashishga undamoqda:

O'ynayotgan Ayol, shafqat qil, uyg'on,

O'ynayotgan Ayol, **Hurmuz** panohing,

Bolangga qaragil, u tirik Tug`yon. (O T 25-bet)

“Thakurning oxirgi she'ri ” she'ridan olingan mazkur band to'laligicha **mifalogik obrazlar nomi bilan bog`liq talmihlar** sirasiga kiradi:

Hind asotirida:

Sarasvati – fan va san`at ilohasi,

Shiva – bunyod va barbod mabudi.

Srabon – tinsiz yomg`ir yog`adigan oy.

Yama – U dunyo, o`lim ma`budi. (T 5-bet)

¹ O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 12 tomlik. T.,2004. 577-bet.

4. Mashhur shaharlar nomi bilan yuzaga kelgan talmih san`ati:

Goh shunday bo`lurki, miyamda g`ashlik,

O`zim bir chelak qon, suv va boshqalar.

Na **Vetnam**, na **Isroil**, na **AQSH**,

Dunyo o`z qo`liga , men o`z yo`limga.(O T 21-bet)

Rauf Parfi she`rlaridagi mazmundorlik va ta`sirchanlikni ta`minlovchi yana bir unsur bu uning falsafiy fikrlari hamda qarashlari. Bu falsafiy fikrlarga singdirilgan tuyg`ularni ijodkor talmih san`atidagi obrazlar orqali yanada jozibador ifodalashga harakat qilgan. Shoir satrlaridagi har bir tarixiy shaxs, badiiy asar qahramoni hamda mifologik timsollardan fikrlarni dalillashda o`rinli foydalangan.

Haqiqiy ijodkor o`z dardini ijodi mahsuliga aylantirmay, balki o`zgalar dardiga malham bo`ladi, insonlar qalbiga ezgulik urug`larini ekadi. Tabiiy hodisalar inkor qilib bo`lmas qonunlardir. Badiiy adabiyotda ham nuroniy avlodlar o`rniga navqiron nasllarning kirib kelishi ma`naviy ehtiyojdir. Bu — badiiy-estetik tafakkurda hamisha yangi did va estetik saviyalarning zohir bo`lishi demakdir. Bu — tabiat va jamiyat hodisalarini, odam va olam sir-sinoatlarini yangicha tushunish, yangi obrazlar va badiiy vositalar bilan tushuntirish san`ati demakdir. Rauf Parfi ijodida ayni shu holatlarga guvoh bo`lish mumkin. Ayniqsa yetuk falsafiy fikrlar bilan birga badiiy tasvir vositalari hamda badiiy san`atlardan mahorat bilan foydalangani e`tirofqa sazavordir. Buni birgina shoir ijodida qo`llangan istiora san`ati orqali ham ko`rishimiz mumkin.

Istiora arabcha so`z bo`lib, ”*biror narsani omonatga olmoq*” degan ma`noni ifodalab, adabiy asarda so`zni o`z ma`nosidan boshqa bir ma`noda , aniqrog`i uni haqiqiy ma`nosida emas, balki majoziy bir ma`noda qo`llash san`ati sanaladi. Ko`pincha bu ikki ma`no o`zaro o`xshashlikka asoslanadi¹.

¹ Hojiahmedov.A. she`riy san`atlarni bilasizmi? Toshkent-1999,12-bet.

Mehribon yellarning qanotlarida,

Kelgil,afsonalar aytmoqda bo‘g‘lar.

G‘aroyib gullarim bordir narida,

Gulim, ko‘rmagansan umringda hali. (T 10-bet)

Ushbu banddagi “**gulim**” so‘zi o‘z ma‘nosida qo‘llanayotgani yo‘q, ya‘ni shoir haqiqiy gulga emas, balki *gul kabi go‘zal mahbubaga* murojaat qilmoqda. Binobarin, gul so‘zi mahbuba, inson ma‘nosida ishlatilgan va istioraning go‘zal na‘munasi yaratilgan. Yana bir she‘rida “**malagim**” deya lirik qahramon *sevgilisiga* murojaat qilmoqda:

Bugun shoh erurman, tilak tilagil,

Bugun men gadoman, tingla, **malagim**. (T 11-bet)

Ayt-chi, meni unitdingmi?

Gullarim **qonlar yutdimi**?

Unitdingmi,eh bir yo‘la

Yorug‘ dunyodan o‘tdimi,

Muhabbatim ekan gullar?! (T 15-bet)

Mazkur misradagi “qon yutmoq” iborasi ham o‘z ma‘nosida qo‘llanmagan, balki “iztirob chekmoq” ma‘nosini anglatadi. Istiorani ma‘no kuchaytirishdagi ahamiyatini ushbu o‘rinda ham yaqqol ko‘rishimiz mumkin.

Eshitdim, onajon, xafa emishsan,

Kechir,oylab senga yozolmadim xat.

Garchi muhabbatdan tilardim ehson,

Yorug‘ kunlarimga bo‘lgandim ilhaq. (S D 105-bet)

**Yorug`** leksemasi bosh ma`noda “*yonib, qizib turgan narsadan tarqalgan yog`du, nur*” (O`TIL.II.47-bet) ma`nosini ifodalaydi.

Yorug` kunlarimda birikuvida yorug` so`zi ham, kun so`zi ham istiora san`atini yuzaga keltirgan. *Yorug`* so`zi o`z ma`nosida emas, balki bu so`zdan yuzaga kelayotgan ko`chma ma`no “*baxtli, nurli*” tashbihi orqali ifodalanyapti. Bu birikuvdagi *kun* so`zi ham o`z ma`nosidan chekinib, “*kunlar bilan belgilanuvchi payt, kez, davr*” (O`TIL.II.428-bet) ma`nosini ifodalamoqda.

Uning bilan kechgan g`amlardan,

Senga qolgan **shirin xotira**.

Mening esa **achchiq g`amlardan**,

Tortib ketdi ko`zlarim xira. (S D 44-bet)

Ushbu bandda **shirin** so`zi ham, **achchiq** so`zi ham o`zining tam semasidan chekingan. *Shirin* so`zi “*yoqimli*”, *achchiq* so`zi esa “*g`am-iztirobli, alamli*” ma`nolarida qo`llangan.

O`zbek mumtoz adabiyotida ham, yangi shakllangan modern adabiyotida ham **tashbih** san`atidan ijodkorlar keng va o`rinli foydalanib, she`riyatda ajoyib na`munalar yaratganlar. Tashbih – sharq adabiyotida keng tarqalagan san`atlardan biri bo`lib, “o`xshatish” degan ma`noni bildiradi. Ikki narsa yoki tushunchani ular o`rtasidagi haqiqiy yoki majoziy munosabatlarga ko`ra o`xshatish san`atidir¹.

Badiiy tafakkurning eng qadimiy elementlaridan biri hisoblangan o`xshatish san`atining tarixiy ildizlari juda uzoqlarga, aniqrog`i, poetik tafakkur taraqqiyotining ilk bosqichlariga borib taqaladi<sup>2</sup>. Shunday tarixiy ildizga ega bo`lgan tashbih san`ati nafaqat mumtoz adabiyoti, balki zamonaviy she`riyatda ham o`z malohatini tarannum etmoqda. Ayniqsa, Rauf Parfi ijodi bu so`zimizga tasdiq bo`ladi:

¹ Hojiahmedov A. She`riy san`atlarni bilasizmi? Toshkent. 1999. 6-bet.

² Is`hoqov Y. Tashbih // O`zbek tili va adabiyoti. - 1970. № 4. 81-bet.

Og`zim to`la so`zlar – jigarlarim,ey

Ortiq sizni asray olmayman

Bilganingizni qilingiz. (T 7-bet)

Shoir shunday rassomki, hech qayerdan topilmas bo`yoqlar bilan har kim ilg`ay olmaydigan san`at asarlari yaratadi. Siyqasi chiqqan odatiylikdan yiroqda, hech kimga o`xshamagan, o`zgacha va ayricha ijod qiladi. She`riyatni butun borlig`i va so`zni esa “jigarlarim” deya betakror o`xshatishlar qiladi va tashbihning ajoyib na`munasini yaratadi.. U shunday shoirki, ijod qilmasdan turolmaydi, ammo so`zni ham avaylab, qimtinib, asrab qo`llaydi. Ba`zida esa asrolmaganidan xijolat tortib, ularga erkinlik beradi va xayolat bilan ularni tutashtiradi.

Yulduzlarga qarayman men ham,

Yulduzlar - chaqnagan orzular.

Huv, miskin kezadir bu odam -

Ko `ksida yonmagan yulduzlar.

(SD. 107-bet)

Mazkur bandda orzusiga erisholmagan miskin odamlar haqida fikr yuritib, yulduzlarni chaqnagan orzularga o`xshatgan va badiiy maqsadini ayni shu o`xshatish orqali amalga oshirgan.

Karvon-karvon kelib ketdilar,

Hammasini bag`ringga olding.

Shamol kabi yelib ketdilar,

Faqatgina sen mangu qolding. (O T 17-bet)

Shoirning *Samarqand* mavzusida yozilgan ushbu she`rida ham **tashbih** san`atidan mohirlik bilan foydalanilgan. Tashbihni hosil qiluvchi vosita – *kabi so‘zi, o‘xshatilmish – karvonning kelib ketishi, o‘xshamish – shamolning yelishi, asos – Samarqand*, ya`ni uning boqiy ekanligi.

G`unchalar orzumdek har safar,

G`unchalar qalbimning bag`rida... (SD 39-bet)

Rauf Parfi tafakkur miqyosi keng, idroki o‘zgacha, ijod dunyosi teran va badiiylikka yo‘g‘rilgani bilan kitobxonlar ommasining tilida, dilidadir. Mana shu misrada ham shakldosh so‘zlardan o‘rinli foydalanish barobarinda tashbihning ham ajoyib na`munasini yaratgan. Mazkur misrada tashbihni hosil qiluvchi vosita – *dek qo‘shimchasi, o‘xshatilmish – g`uncha, o‘xshamish – orzu*. Shoir g`uncha haqida mulohaza yuritib, *qalbda yangi paydo bo‘layotgan orzularni g`unchalarga qiyoslaydi*.

Ijodkor tashbih san`atini ichki tug`yonlarini aks ettirish vositasi qilib qo‘llagan. Biz bilamizki, Rauf Parfi qush, nur, osmon, yulduz, yomg‘ir obrazlarini lirik qahramon darajasiga ko‘targan, shu boisdan mazkur obrazlar bilan bog‘liq turli ichki kechinmalarni aks ettiruvchi tashbihlar qilgan. “*Bir qushcha*” deb nomlangan she`rida yig‘layotgan qushchanining *ko‘zlarini ikki marvaridga o‘xshatgan bo‘lsa*:

Bir qushcha derazam yonida

O‘tirar parishon va g`arib.

Yig‘laydi ko‘zlari yonadi,

Ko‘zlari ikki marvarid. (T 4-bet)

« Seni menga betob dedilar » nomli she`rida lirik qahramonning ko‘z yoshini yomg‘irga qiyoslaydi :

Seni menga betob dedilar,

Oqdi yoshim misoli yomg‘ir. (T 11-bet)

“*Qaydasan sen*” deb namlangan ijod na`munasida lirik qahramonni ruhiy holatini aks ettirishda yomg`ir obrazidan foydalanadi va yomg`irni tinimsiz yog`ish holatini osmon uyining buzilishi va yig`lash holatiga o`xshatadi :

Yomg`ir yog`ib chiqdi tun bo`yi,

Tong oqardi, tinmadi yomg`ir .

Buzilgandek osmon uyi –

Yerga qarab yig`laydi og`ir. (T 9-bet)

XX asrning 60-yil o`rtalari, 70-yil boshlari she`riyatga kirib kelgan, yorqin o`zligini namoyon etgan Rauf Parfi yangi, oxori to`kilmagan, kutilmagan noan`naviy majoziy (Qushcha, Chiroq, Daraxt, Nay, Nur) obrazlari bilan adabiy jamoatchilik muhabbatini qozondi; majoziy obrazlilik asosiga qurilgan badiiy tafakkur tabiati bilan el-yurt nazariga tushdi. Rauf Parfining tasavvur dunyosi va tafakkuri keng ekanligi mazkur **tashbihlarida** ham o`z aksini topgan.

Barglarda raqs etar shabboda,

O`ynar sabo shaklida kecha,

*Gullar **kabi** saqlaydi odob,*

Afsonalar aytar tonggacha.

Kecha tepasida uchadi,

Kiprigimdan otilguvchi nur.

Menga kecha yomg`ir ichida,

Go`zal xayol **kabi** ko`rinur! (A S 6-bet)

Lirik qahramon kechinmalari qorong`u kechada yog`ayotgan yomg`irga esh. Undan surur, umid tuyadi. Shu ma`noda, uning nazdida, barglarda raqs etar shabboda. Hatto zimiston qorong`ulik ham sabo shaklida yoqimli, faraxbaxsh.

Gullar singari ximo tortib, tonggacha afsonalar aytayotgandek tuyuladi. Shu boisdan ham lirik qahramon ko'nglidan shu'la otiladi, kiprigidan nur chatnaydi. Hayol – adoqsiz bo'shliq qahridagi ro'yo emas. U yomg'ir ichidagi zimiston qorong'ulik. Unga ishonsa bo'ladi. Garchand, qorong'ulik og'ushida esa-da, yomg'irdagi oydin shabboda epkini ertaga otajak tonglar umidini uyg'otadi¹.

Guvoh bo'lamizki, Rauf Parfi ijodi misoli dengiz, unda mohirlik bilan qo'llangan har bir so'z, fikr shu dengiz tubidan makon topgan beqiyos, qimmatbaho xazinadir. Ayniqsa, shu xazinada tashxis san'atini dur desak adashmagan bo'lamiz.

Tashxis – hayvonlar, qushlar, jonsiz narsalarga inson xususiyatini ko'chirish san'atidir². Ko'rinadiki, timsolli, majoziy she'riyat Rauf Parfi uslubining o'tli nafasi, o'zak mag'zi, deyish mumkin. Rauf Parfi lirikasining o'ziga xosligini belgilovchi asosiy omil, bu — she'riy san'atlar xilma-xilligi emas. Aksincha, ana shu turfa xil she'riy san'atlarni yuzaga keltirgan badiiy tafakkur tabiatidir.

Biz Rauf Parfi ijodidagi tashxis san'atini quyidagi guruhlariga ajratib o'rgandik:

- **Jonsiz ashyolar va narsa-buyumlar bilan bog'liq tashxis san'ati.**
- **His-tuyg'ular bilan bog'liq tashxis san'ati.**

Jonsiz ashyolar va narsa-buyumlar bilan bog'liq tashxis san'ati. Bunda shoir ko'proq tabiat hodisalariga murojaat etib, borliqqa insonlar xususiyatini ko'chirish orqali tashxis san'atini yuzaga keltirgan:

Barglarda raqs etar shabboda,

O'ynar sabo shaklida kecha,

Gullar kabi saqlaydi odob,

¹ Rahimjonov N. Iymon asiri. WWW. ziyouz. com kutubxonasi

² Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: "sharq" nashriyoti. 1999. 38-bet

Afsonalar aytar tonggacha. (A S 6-bet)

Yuqorida keltirilgan bandning har bir qatorida **tashxis** san`ati qo`llangan, ya`ni, insonlarga xos xususiyatlar jonsiz ashyolarga ko`chirilgan, chunonchi *shabbodaning raqsga tushishi, kechaning odob saqlashi, afsonalar aytishi* bu san`atning ajoyib na`munasidir. Misralarda tashxis san`ati bilan birga *tashbeh* ham qo`llangan (*O`ynar sabo shaklida kecha, Gullar kabi saqlaydi odob*).

Shamol, sochlaringni tarama,

Oqarsa oqarsin azobdan. (O T 7-bet)

Tashxis san`atining eng asosiy belgilaridan biri jonsiz ashyolarga inson xususiyatlarini ko`chirishdan iborat. Mazkur baytning har ikki misrasida ham tashxis san`atining ajoyib na`munasi keltirilgan. Birinchi misrada insonlarga xos orastalik belgisi bo`lmish *soch tarash* hodisasi shamolga ko`chirilgan bo`lsa, ikkinchi misrada tashxis bilan birga ma`no ham kuchaytirilgan. Insonlar yoshi ulg`aygan sari tabiiy jarayonlardan biri soch oqarish jarayoni sodir bo`ladi, ana shu jarayon shamolga ko`chilgan va buning sababi shamolning boshiga tushgan azoblardir. Rauf Parfi jonsiz predmetlar orqali insonlardagi xazin tuyg`ularni ifodalashga harakat qiladi. Yuqoridagi baytda ham **nido** san`atining ajoyib na`munasi keltirilganiga guvoh bo`lamiz (***Shamol, sochlaringni tarama,*** Oqarsa oqarsin azobdan). Shu boisdan shamolning obrazlilik darajasi yuqori darajaga ko`tarilgan.

Talpinadi, shunday kuladi

Ko`m-ko`k o`rmon va tiniq daryo.

Daryo uzra oy ham kuladi

Yer husniga bo`lib mahliyo. (SD .29-bet)

Yana bir she`rida insonga xos **talpinish va kulish** holatlari **o`rmon va daryoga, mahliyo bo`lish** (*mahliyo bo`lmoq* “harakat yoki zavqdan es-xushi

og`ib, angrayib qolmoq, hay-ron qolmoq ”(O‘TIL.II.574-bet)), **kulish holati oyga** ko‘chirilgan va tashxisning ajoyib na‘munasi yaratilgan. Ushbu tasvir orqali voqelikka nisbatan ijobiy munosabat ifodalangan va nutqiy ta‘sirchanlik oshirilgan.

Rauf Parfi she‘riyatida tabiat unsurlari, moddiy olam o‘z hayoti, xayollari bilan yashaydi. Xoh osmon kengliklariyu yulduzlarmi, xoh bulutlaru oftob nurlarimi — barchasi o‘z quvonchi, tashvishi, dardi-dunyosi bilan betakror qiyofasini namoyon etadi. Sirli olam sinoatlarini tushunishga ko‘mak beradi. Tabiat obrazlari ko‘zimizga singib kirarkan, ko‘nglimizdan joy oladi. Yana muhimi, tabiat detallari, ranglari, obrazlari jamiyatni, insonni tushunishimizga ko‘maklashadi. Bir o‘rinda qizlarga xos bo‘lgan soch turmaklash holatini tabiat hodisasiga, ya‘ni quyoshning botishiga o‘xshatib, quyoshga ko‘chirgan:

Kechki quyosh turmaklar sochin,

Jozibali bo‘lar ertaga!

Ana, ko‘k ham marjonlar sochdi –

Kengliklarning moviy ertagin.

**Tuy`gular bilan bog`liq tashxis san`ati** ham ijodkor she`rlarini bezab, ularga o‘ziga xos jilo bahsh etadi. Chunonchi, shoir she`rlaridagi o‘ziga xos xususiyatlardan biri ham tuy`gularni obraz darajasiga ko‘targan va ichki tuyg`ularni ushbu obrazlar orqali ifodalagan:

Sevinch, biror marta qayg`urganmisan,

Kulgu, yig`laganmisan biror marta bo‘lsin

Do‘st bo‘lolmassiz men bilan. (T 7-bet)

Rauf Parfi lirikasi yangiliklarga boydir, chunonchi uch qatordan iborat qofiyasiz, hech bir adabiyot qoidalariga bo‘ysunmaydigan she`rlar mavjud. Shoirning bundan ko‘zlangan asosiy maqsadi esa yangiliklarga boy ijodkor sifatida

tanilish emas, balki she`riyatni ko`ngil mulkiga aylantirish va uning dil torini chertayotgan ohangiga turli ranglar uyg`unligini kashf etishdir. Yuqorida keltirilgan misralar ham xuddi shu she`rlar sirasiga kiradi. O`zaro zid tuyg`ular orqali falsafiy fikrlarini kitobxonga yetkazib bergan. Tuyg`ularni obraz darajasiga ko`targan va ularning ham ichki kechinmalari bilan o`rtoqlashmoqni istaydi. Insonlarning ichki kechinmalarini yuzaga chiqaruvchi hodisalar: yig`lash(*“ruhiy yoki jismoniy azobga ekanini tovush chiqarib yoki chiqarmay, ko`z yoshi to`kkan holda ifodalash”* (O`TAIL. 103-bet)) ,qayg`urishni tuyg`ularga: sevinch va kulgu (*“xursandligini zavq-shavqini uzoq-uzoq tovushlar bilan ifodalash”* (O`TAIL. 103-bet))ga ko`chiradi. **Sevinch va kulgiga** murojaati bevosita **nido** she`riy san`atini ham yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, adabiyotimizda **oksyumoron** deb ataluvchi mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo`lgan ikki tushunchani ifodalovchi so`zlar o`zaro qo`shib qo`llaniladigan hodisa ham qo`llangan<sup>1</sup>. (***Sevinch qayg`urganmisan. Kulgu yig`laganmisan***) Rauf Parfi hayvonlar, qushlar, jonsiz va mavhumiy narsalarni shu xilda tasvirlash vositasida she`riy asarda ilgari surgan muayyan g`oyani aniqroq ifodalaydi, shuning uchun tasvirlanayotgan lirik timsollar yorqirroq, jozibadorroq, jonliroq aks etgan.

Rauf Parfi ijodida **nido** san`atining bu ko`rinishidan tashqari majoziy ma`nodagi va istioraga asoslangan ko`rinishlari ham mavjud. Bunda asosan ijodkor murojaat qilayotgan narsa-buyum va shaxs ko`chma ma`no ifodalaydi:

Mehribon yellarning qanotlarida,

Kelgil, afsonalar aytmoqda bo`g`lar.

G`aroyib gullarim bordir narida,

Gulim, *ko`rmagansan umringda hali.*

(T 10-bet)

¹ Abduraxmonov H, Mahmudov N. So`z estetikasi. Toshkent: "Fan", 1981. 38-47-bet.

Ushbu banddagi “**gulim**” soʻzi oʻz maʼnosida qoʻllanayotgani yoʻq, yaʼni shoir haqiqiy tabiatdagi chiroyli boʻlgan oʻsimlikni emas, balki *gul kabi goʻzal mahbubaga* murojaat qilmoqda. Binobarin, **gul** soʻzi **mahbuba**, **inson** maʼnosida ishlatilgan va **nido**ning goʻzal naʼmunasi yaratilgan. Buning kabi misollar ijodkorning sheʼrlarida talaygina:

Bugun shoh erurman, tilak tilagil,

Bugun men gadoman, tingla, **malagim**. (T 11-bet)

Shoir «Yurak» sheʼrida «Men faqat Turkiston atalgan yorqin, Bir butun yurtimni istayman, xolos» der ekan, yoqavayron oʻz vatanida vatansiz turkiylar birligini, yoʻllar, koʻllar, tillar, dillar bir boʻlishini, yaxlit bagʻri butun millat sifatida qad tiklashini orzu qiladi ¹. Ayni shu gʻoyalar magʻzini nido sanʼati orqali ifodalagan:

Oʻzingni ayama borayotgan **Ildiz**,

borayotgan **Hasrat**,

borayotgan **Vatan**,

Ona Turkiston. (S D 383-bet)

Muhabbat jasorati oʻzining gʻamginu, shoʻx, ojiz-u qudratli, beqaror-u sokin, horgʻin sifatlariga sohiblik qiladi. Kundalik maʼno doirasida jasoratning ojizligiga , gʻamginligiga va sokinligi-yu horgʻinligiga koʻnikish qiyinday tuyuladi. Axir, goʻzallik nimasi bilandir yangi boʻlishi kerak-ku. Yangilik goʻzallikda doya va egizak ham, u goʻzallikni tugʻdirar ekan, qoʻshilib oʻzida tugʻiladi. Shunga koʻra, jasorat yangimi, demak, u goʻzal hamdir. Ana shu holatni oʻzbek sheʼriyatining tuygʻular rassomi Rauf Parfi ijodida koʻramiz va undagi ovoz tasvirini tinglaymiz².

¹ Rahimjonov N. Iymon asiri. WWW. ziyouz. com kutubxonasi

² Ulugʻbek Hamdam. Sheʼriyatning buyuk yoʻlchisi. WWW. ziyouz. com kutubxonasi

Rauf Parfi she`riyatida mashuqa obrazi yetakchilik qiladi. Ba`zi she`rlarida mahbubani topgunga qadar yashaganligiga shubha qilsa (T 6-bet), ba`zilarida esa seviklisidan ajralsa, yer o`z o`qidan chiqib ketishini (T 8-bet) bayon qilgan. Yana bir o`rinda : «Og`ir sevganidan rashki ham og`ir». Yorining xiyonatidan xabar topgan oshiq faryod solmaydi: «Kel, vidolashaylik endi sog`inib» (T 14-bet). Mana shunday ajoyib oshiqona misralarda badiiy san`atlardan ham ustalik bilan foydalangan, ayniqsa **husni ta`lilning** ajoyib na`munalarini yaratgan.

“ *Husni ta`lil*” *arabcha “chiroyli dalillash”* ma`nosini bildiradi. Adabiy asarda tasvirlanayotgan biror hodisaga shoirona biron sabab ko`rsatish san`ati shu nom bilan ataladi. ¹

Ko`zlarimga berkitay va lekin

Yoshday oqib ketma, sevgilim. (T 13-bet)

Badiiy adabiyotda yor ta`rif-u tavsifi, madhi ustuvorlik qiladi. Turli adibda xoh nasr ustasi , xoh nazm sohibi bo`lsin, ma`shuqa yangi bo`yoqlarda , o`zgacha ruhda ifodalanadi. Ijodkor ma`shuqani shunchalik muqaddas va qardli biladiki, shu bois uni hech kim va hech narsaga ishonmaydi, uni unitolmaydi, ko`rmasdan tura olmaydi, shuning uchun go`zal seviklisini ko`zlariga yashiradi. Ammo, yana xavotirda, undan ayrilmoqni istamaydi, ko`zlariga berkitilgan yorni yoshdek o`qib ketmasligini xohlaydi va shuning uchun bir umr yig`lamaslikka tayyor. Bunday go`zal ta`rif ijodkorning o`ziga xos yuksak idrok egasi ekanligidan dalolat beradi.

Ayt-chi, meni unitdingmi?

Gullarim qonlar yutdimi?

Unitdingmi, eh bir yo`la

Yorug` dunyodan o`tdimi

Muhabbatim ekkan gullar?! (T 15-bet)

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “Sharq” nashriyoti. 1999. 27-bet

Mazkur misrada sof ma`shuqa obrazi ifodalagan. Misrada tasvirlanishicha, yor mashuqani unitdi, shekilli, oshiq seviklisi muhabbatidan ekkan sevgi gullari dunyodan o`tdi, xazon bo`ldi. Muhabbat gullari qonlar yutdi, shuning uchun ham oshiq uni unutdi deb o`ylamoqda. Mazkur misrada yordan birgina xavotir oni shunday g`o`zal tasvirlangan va **husni ta`lil** san`atini ajoyib na`munasi yaratilgan.

“Sharq adabiyotshunoslikda ta`kidlanishicha, she`rda keltirilgan husni ta`lil qat`iy bo`lishi lozim. Agar gumon ma`nosida qo`llanilsa, “*shibhi husni ta`lil*”, ya`ni “*shubhali chiroyli sabab*” deb atalgan “,- deb fikr bildirgan adabiyotshunos Anvar Hojiahmedov<sup>1</sup>. Rauf Parfi ijodida ham *shibhi husni ta`lilni* ko`rishimiz mumkin:

Seni o`ylab kelmaydir uyqu –

Qora tunnning o`zga sehri bor.

Tushlarimda topay deb gulro`

Men uxlayman mangu ehtimol. (T 11-bet)

Rauf Parfining studentlik yillaridayoq mashhur bo`lishiga sabab bo`lgan she`ri “Laylo” she`ri hanuzgacha dilbar qo`shiq bo`lib yangramoqda. “Laylo” she`ridan olingan mazkur bandda husni ta`lilning yuqorida aytilgan turi uchraydi. Misrada tasvirlanishicha, ijodkor sevgilisini o`ylab hattoki, ko`ziga uyqu ham kelmaydi, ammo seviklisini tushlarida topish ehtimoli bor. Ayni shu maqsadda lirik qahramon mangu uxlashga ham tayyor, faqatgina sevgilisi diydori uchun.

“*Qaydasan sen*” deb namlangan ijod na`munasida lirik qahramonni ruhiy holatini aks ettirishda yomg`ir obrazidan foydalanib husni ta`lining ajoyib na`munasi yaratadi. *Yomg`irni tinimsiz yog`ishining sababi osmon uyining buzilishi va shuning uchun osmon yig`layotganidir:*

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “sharq” nashriyoti, 1999. 41-bet.

Yomg`ir yog`ib chiqdi tun bo`yi,

Tong oqardi, tinmadi yomg`ir .

Buzilgandek osmon uyi –

Yerga qarab yig`laydi og`ir. (T 9-bet)

“So‘zlatish”, “gapirtirish” ma`nosidagi **intoq san`ati** badiiy asarda hayvonlar yoki jonsiz narsalarni odamlarga o‘xshatib so‘zlatishni nazarda tutadi¹. Shoir tafakkuri boy, fikrlash salohiyati yuksak, shu bois intoq san`ati uning ijodida keng va chiroyli ifodalangan. Shamolning so‘zlari orqali shoir intoq sa`natini yaratibgina qolmay, balki uning vositasida ichki kechinmalarini ham aks ettirgan:

“Voh jonim voh jonim” deb hirqirar

Derazamning ortida **shamol**

Yulib tashlasam edi jonimni qani (T 8-bet)

Yana bir o‘rinda shoir mifologik qush – Semurg` vositasida mumtoz adabiyotda uchraydigan ilohiy ishq haqida so‘z yuritib, intoqning ajoyib na`munasini keltiradi:

Nola aylab **Semurg` dedi: - Ey bedor,**

Chorlar seni Biruborim. Bor. Ishon.

Sen fano vodiysi, haq qoshiga bor,

Yer-u osmon cho‘kmakdadir benishon.

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “Sharq” nashriyoti. 1999. 41-bet

**Mubolag`a** atamasi arab tilida *kattalashtirish, kuchaytirish* ma`nosini bildirib, badiiy asarda tasvirlanayotgan obrazning poetik ifodasini bo`rttirish hamda kuchaytirishga xizmat qiladi².

Mubolag`aning mohiyati va imkoniyatlari o`tmishda klassik poetika mutaxassislari tomonidan atroflicha o`rganilib, uning poetikasiga doir muhim fikrlar aytiladi. Mubolag`a san`atining asosiy turlari orasidagi tafovut nihoyatda nozik va ancha ishonarli izohlangan.

Mubolag`a talqin qilinayotgan voqelik, obraz, belgi-xususiyat yoki badiiy detalning ifodalanish darajasiga ko`ra uch tipga bo`lib tasniflanadi:

1. Tavsif yoki mazammat aqlga va odatga bir oz muvofiq kelsa, bunday mubolag`a **tablig`** deyiladi. Ya`ni bo`rttirish tasvirlanayotgan hodisa yoki xususiyat aqlga biroz to`g`ri keladi, biroq uning bo`lishi , amalga oshishi qiyin.
2. Aqlan, ya`ni tasavvurda mumkin, ammo amalda mumkin bo`lmagan mubolag`a **ig`roq** (arabcha-kamonni qattiq tortmoq) deyiladi. Bunday tasvirda o`quvchi voqea yoki xususiyatni ko`z oldiga keltirib, tasavvur qila oladi, biroq amalda , hayotda uning bo`lishi mumkin emas.
3. “Ham aqlan, ham odatan nomumkin” ya`ni tasavvur qilish qiyin, bo`lishi esa mutlaqo mumkin bo`lmagan mubolag`a turi **g`uluv** ( *arabcha-qo`lni imkoni boricha baland ko`tarish* ) deyiladi. Bunday tasvir mubolag`aning eng yuqori va eng murakkab xili hisoblanadi.

Adabiyotimizda mubolag`aning **tablig`** turi faol qo`lanib, ijodkorlar fikrlarini aynan shu vosita orqali ifodalashga harakat qiladilar. Buni nafaqat yozma adabiyotda, balki xalq o`g`zaki ijodi na`munalarida ham guvohi bo`lamiz.

² Is`hoqov Y. Mubolag`a // O`zbek tili va adabiyoti. – 1972. - №5, 79-bet

Seni o‘ylab kelmaydir uyqu –

Qora tunnig o‘zga sehri bor.

Tushlarimda topay deb gulro‘

Men uxlayman mangu ehtimol. (T 11-bet)

Rauf Parfining “Laylo” sheʼridan olingan mazkur bandda mubolagʻaning yuqorida aytilgan turi uchraydi. Misrada tasvirlanishicha, ijodkor sevgilisini o‘ylab hattoki, ko‘ziga uyqu ham kelmaydi, ammo seviklisini tushlarida topish ehtimoli bor. Ayni shu maqsadda lirik qahramon uxlaydi. Bu holat aqlga biroz to‘g‘ri keladi, biroq uning bo‘lishi, amalga oshishi qiyin.

Ijodkor mubolagʻa vositasida o‘zining badiiy fikrini to‘laqonli talqin qilish, o‘z qahramonlarining muayyan belgi-xususiyatlari hamda tasvirlanayotgan voqelik bayonining maʼlum bir jihatlarini bo‘rttirib ifodalash imkoniga ega bo‘ladi¹.

Rujuʻ - arabcha so‘z bo‘lib, “qaytarish” maʼnosini bildirib, sheʼriyatda shoirning oldingi misra yoki baytda ifodalangan fikri, qo‘llagan badiiy tasviriyy vositasidan qaytgandek bo‘lib, keyingi misra yoki baytda unga qaraganda kuchliroq ifoda, sheʼriy sanʼatni keltirish yoki oldingi fikrni aniqlashtirish, to‘ldirish usulidir².

Shu gaplar rost bo‘lsa yolg‘izim yig‘lab,

Senga o‘lim tilab qolar edim men.

Yo‘q, yo‘q mozoringni o‘pib, timdalab

Qayta tiriltirib olar edim men. (T 14-bet)

Mazkur bandda ruju sanʼati qo‘llangan bo‘lib, aynan shu sanʼat orqali sheʼrdagi mazmundorlik, taʼsirchanlik va o‘zgacha ohang taʼminlangan. Bandda

¹ Zaripov B. Alisher Navoiy asarlari tilida zoonimlar. Toshkent: “Fan” nashriyoti. 2007. 58-bet.

² Hojiahmedov A. Mumtoz badiyat malohati. Toshkent: “sharq” nashriyoti. 1999. 47-bet

oshiq mashuqasini xiyonat qilganligidan shubhalanayapti, agar bu gaplar rost bo'lsa, mashuqaga o'lim tilaydi. Keyingi misrada bu fikridan qaytadi, chunki u mahbubasidan ayri yasholmaydi, shuning uchun seviklisini mozordan chiqarib olib, qayta jon bag'ishlaydi. Rauf Parfi sevgini shunchaki tasvirlamaydi, balki ma'lum bir syujetlar asosida uni qanchalik nozik, g'ozal tuyg'u ekanligini isbotlaydi.

Qara, qanday porloq erur ko'k,

Tingla, **qo'shiq** aytar yulduzlar.

Bu – oy to'kkan shu'la emas, yo'q,

Bu – **navoga** aylangan so'zlar.

(SD. 53-bet)

Mazkur satrlarda ham ijodkorning o'ziga xos jihati sezilib turibdi. Sababi, u tabiat hodisasidan tortib to kichik zarrasini ham obraz darajasiga ko'tara oladi. Badda osmonning porloqligini oy to'kkan shu'la, yo'q balki navoga aylangan so'zlar deya o'z fikrini dalillaydi.

Xulosa.

Rauf Parfi ijodkorlar orasida ijodi, soʻz qoʻllash mahorati hamda oʻziga xos hayotiy haqiqatlarga yoʻgʻrilgan gʻoyalari, falsafiy fikrlari bilan ajralib turadi. Biz mazkur bobda ijodkor sheʼrlarida qoʻllangan maʼnaviy sanʼatlar haqida fikr yuritdik. Har bir sheʼriy sanʼat shoir ijodida mohirlik bilan qoʻllangan. Birgina maʼnaviy sanʼatlarga kiruvchi talmih sanʼatini shoir ijodida bir necha koʻrinishlariga guvoh boʻldik: tarixiy shaxslar nomi bilan bogʻliq talmihlar (Alisher Navoiy, Firdavsiy), asar qahramonlari nomi bilan bogʻliq talmihlar (Layli va Majnun, Hamlet), mifologik obrazlar bilan bogʻliq talmihlar (Semurgʻ, Ahuramazda), mashhur shaharlar nomi bilan yuzaga kelgan talmih sanʼati (Vetnam, Isroil, AQSH). Har bir sheʼriy sanʼatni shoir ijodida tahlil qilar ekanmiz, ularni mavzu koʻlami koʻpligi sababli bir qancha guruhlarga boʻlib oʻrgandik. Shoir shunday rassomki, hech qayerdan topilmas boʻyoqlar bilan har kim ilgʻay olmaydigan sanʼat asarlari yaratadi. Siyqasi chiqqan odatiylikdan yiroqda, hech kimga oʻxshamagan, oʻzgacha va ayricha ijod qiladi. Sheʼriyatni butun borligʻi va soʻzni esa “jigarlarim” deya betakror oʻxshatishlar qiladi va tashbihning ajoyib naʼmunasini yaratadi.. U shunday shoirki, ijod qilmasdan turolmaydi, ammo soʻzni ham avaylab, qimtinib, asrab qoʻllaydi. Baʼzida esa asrolmaganidan xijolat tortib, ularga erkinlik beradi va xayolat bilan ularni tutashtiradi. Bundan tashqari shoir ijodida istiora, husni taʼlil, tashxis , mubolagʻa, rujuʼ kabi maʼnaviy sanʼatlarni shoir ijodidagi ajoyib naʼmunalariga guvoh boʻldik.

Rauf Parfi lirikasi yangiliklarga boydir, chunonchi uch qatordan iborat qofiyasiz, hech bir adabiyot qoidalariga boʻysunmaydigan sheʼrlar mavjudligiga guvoh boʻldik. Shoirning bundan koʻzlangan asosiy maqsadi esa yangiliklarga boy ijodkor sifatida tanilish emas, balki sheʼriyatni koʻngil mulkiga aylantirish va uning dil torini chertayotgan ohangiga turli ranglar uygʻunligini kashf etishdir. Shu qisqagina sheʼrga olam qadar maʼno jamlagan hamda koʻplab badiiy tasvirlardan ustalik bilan foydalangani tahsinga sazavor.

II.Bob. Lafziy san`atlarning shoir ijodidagi o`rni.

Asqad Muxtor “Sharq yulduzi” jurnalida shoirga oq yo‘l tilab yozgan so‘zboshisida uning hech hech kimnikiga o‘xshamagan ovoz bilan qulay boshlaganini e’tirof etar ekan, shunday yozadi: “ Rauf Parfi har bir she`rida odamning murakkab ruhiy dunyosidagi biron holatni tutib olib suratlaydi. Bu qiyin ijodiy jarayon . Lekin Raufning satrlarida bu qiynalish bilinmaydi, ular go‘yo oson ko‘chgandek ravon, tabiiy, saminiy ”.¹

Rauf Parfi she`rlarida kuchli falsafiy fikrlar bilan hamohang badiiy tasvir vositalari, turli xil janrlar hamda badiiy san`atlardan ustalik va mahorat bilan foydalangan. Biz ilmiy ishimizda badiiy san`atlarning shoir ijodida qo‘llangan ajoyib na`munalarini tahlil qilamiz. Rauf Parfi ijodida **tajnis** san`atining ajoyib na`munalarini yaratgan.

Tajnis (yoki jinos) she`r baytida ma`no jihatidan har xil, ammo shakli bir xil yoki shaklan bir-biriga yaqin ikki so‘zni keltirib, ular vositasida muayyan fikr, lavha yoki timsolni ta`sirchan ifodalash san`atidir.

Ko‘nglim osmon yanglig`, yorishdi osmon,

Kelur **ot** o‘ynatib Xaloskor sarboz.

O‘rqin saharlarda sen, Ruhim, omon

Yuksak-yuksaklarga qilaber parvoz. (OT. 20-bet)

Ot qo‘yaman yonishlar yondi,

U yerdan kelmoqda ovozim. (SD. 57-bet)

Birinchi banddagi **ot** so‘zi “*yakka tuyoqlilarga mansub, o‘txo‘r , sutemizuvchi yirik ish-ulov hayvoni*” (O‘TIL.II.150-bet) ma`nosini anglatadi va bu

¹ Asqad Muxtor. Poetik mahorat. “Sharq yulduzi” jurnali. 1-son,137-bet

soʻz ikkinchi bandidagi **ot** “*kishining shaxsiy ismi, nom*” (OʻTIL.II.150-bet) maʼnosini bildiruvchi soʻz bilan qoʻllanib tajnis sanʼatini vujudga keltirgan.

“...Kurash nechun axir?” ...men **yosh** oʻlarman,

Necha imkon bordir sevdim-ku tokim

Tuproqdan edim men, tuproq boʻlarman,

Dunyoni tutajak mening-da xokim... (T. 16-bet)

Shundandir, koʻzlaringda baʼzan **yosh**,

Ha, dillarning dogʻi bor,

Umlarning adogʻi bor begumon.

(SD. 23-bet)

Birinchi bandidagi **yosh** soʻzi sifat soʻz turkumiga mansub boʻlib, “*qari emas, navqiron*” (OʻTIL.II.52-bet) maʼnosini anglatadi.

Ikkinchi bandda qoʻllangan **yosh** soʻzi ot soʻz turkumiga taalluqli boʻlib, “*qattiq ogʻriq , qaygʻu yoki kuchli sevinch-shodlik natijasida yosh bezlaridan ajralib chiqadigan tiniq shoʻr suyuqlik*” (OʻTIL.II.52-bet) maʼnosini bildiradi.

Bu yomgʻir tinar qachon?

Yerga botadi tovon,

Loy yopishar etikka.

Lekin kutasan hamon

U tanish **tol** ostida.

Xayr senga, yaxshi qol endi.

Faryod chekar koʻzingda sevinch.

Xayollarga bir dam **tol** endi

Huzuringga men qaytmasman hech...

(SD. 58-bet)

Mazkur misradagi birinchi qoʻllangan **tol** soʻzi ot soʻz turkumiga mansub boʻlib, “*bargi ingichka, novdalari egiluvchan daraxt*” (OʻTOIL. 133-bet) maʼnosini anglatadi. Keyingi banddagi **tol** soʻzi feʼl soʻz turkumiga taalluqli boʻlib, “*choʻmmoq, shoʻngʻimoq*” (OʻTOIL. 133-bet) maʼnosini anglatadi.

Nahot Borliq – saqov.

Nahot Borliq –**koʻr**.

Dildirab lopillab turgan bulutlarning

Tobutida yotar jonsiz tafakkur. (SD. 85-bet)

Sovuqni **koʻr**, yuzni chimchilar,

Masxaraman unga bu zamon.

Oʻylaringa kelib sanchilar,

Oy emas ul – u qotil kamon. (SD. 138-bet)

Koʻr soʻzi ot soʻz turkumiga taalluqli boʻlib, “*koʻrish qobilyati yoʻq, soʻqir*” (OʻTIL.II. 465-bet) maʼnosini anglatadi. Birinchi misoldagi bu soʻz koʻchma “*narsa, voqea, hodisaning mohiyatini tushuna olmaydigan, ongi yetmaydigan, ongsiz, bilimsiz*” maʼnosida qoʻllanmoqda.

Ikkinchi banddagi **koʻr** soʻzi feʼl soʻz turkumiga oid boʻlib, “*koʻz bilan ilgʻamoq, koʻz bilan aniq farqlamoq, sezmoq, bilmoq*” (OʻTIL.II. 465-bet) maʼnosini anglatadi. Bu ikki soʻz boshqa-boshqa maʼno anglatuvchi shakldosh soʻzlardir. Bu soʻzlar vosita Rauf Parfi tajnisning goʻzal naʼmunasini yaratgan.

Tajnisning yana bir ko‘rinishi tajnisi murakkab bo‘lib, bu xil tajnislarda shakldosh so‘zlarning biri bir so‘zdan, boshqasi ikki tarkibdan iborat bo‘ladi.¹ She‘riyatda tajnis murakkab o‘ziga xos uslubiy vositalar rolini bajaradi: misralarni qofiyalash, tuyuq va askiya janrlariga xos so‘z o‘yinini ta‘minlaydi, shu asosda badiiy asarga husn bag‘ishlaydi :

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Tomchilar tomchilar sochimga,

Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar,

Ham qayg‘umga, ham quvonchimga.

(SD. 24-bet)

Mazkur misradagi “**Tomchilar tomchilar sochimga**” gapidagi *tomchilar*, *tomchilar* so‘zlari she‘rga o‘ynoqi ohang va nafislikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda. Birinchi qo‘llangan **tomchilar** so‘zi – *tomchi* \ot\+lar \ko‘plik qo‘shimchasi\ shaklida. Ikkinchi qo‘llangan **tomchilar** (**tomchi+la** \fe’l yasovchi qo‘shimcha\+r \ fe’lning zamon kategoriyasiga oid qo‘shimcha \dan iborat. Ijodkor bu o‘rinda tajnis san‘atini ajoyib na‘munasini yaratish bilan birga misradagi o‘ynoqi ohangni ham ta‘minlay bilgan. Yana bir she‘rida:

G‘unchalar pushtirang va za‘far

Zangori yaproqlar shahrida .

G‘unchalar orzumdek har safar,

G‘unchalar qalbimning bag‘rida... (SD 39-bet)

Misrada qo‘llangan birinchi **g‘unchalar** so‘zi - **g‘uncha** \ot\+lar \ko‘plik qo‘shimchasi\ (“*hali ochilmagan gul, gulbarglari hali yozilmagan gul*” (O‘TIL.V.460-bet) shaklida, ikkinchi qo‘llangan **g‘unchalar** (**g‘uncha+la** \fe’l

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “sharq”. 1999. 67-bet

yasovchi qo‘shimcha\+r \ fe‘lning zamon kategoriyasiga oid qo‘shimcha \dan (“g`uncha paydo qilmoq, g`uncha chiqarmoq” (O‘TIL.V.460-bet)) iborat.

Poetik takrorlar silsilasida qofiya va unga aloqador san`atlarning ham o‘ziga xos o‘rni bor . Qofiyada komponentlar tarkibidagi lafzdosh tovushlar miqdorining ortib borishi poetik nutqning xushohanglik va jarangdorlik xossalari kuchayishiga olib keladi. Bu borada tajnis qofiyasining ham alohida o‘rni bor¹.

Muncha g`amgin bo‘lmasa **o‘ylar**,
Hijron muncha bo‘lmasa uzoq.
Ayricha ko‘ringay har kasga dunyo,
Borliqning savdoli ishlarin **o‘ylar**.
Pirpirab yonardi yulduzlar, go‘yo
Ruhning manguiligin yondirar ular...

(SD. 153-bet)

Birinchi baytdagi **o‘ylar (o‘y+lar)** so‘zi “*fikr, xayol*” (O‘TOIL. 170-bet) ma`nosini anglatadi. Ikkinchi qo‘llangan **o‘ylar (o‘y+la+r)** so‘zi “*fikrlamoq, o‘yga tolmoq*” (O‘TOIL. 170-bet) ma`nosini anglatadi. Bunday na`munalar shoir ijodida talaygina. Onalar tarannum etilgan bir she`rida “oqlaysan” so‘zi tajnisni yuzaga keltirgan: tong ottirmoq va gunohdan soqit qilmoq ma`nolarini ifodalagan :

Ko‘chalarga qaraysan har zum,
Kechalarni oqlaysan ,ona.
Gunohkorman yolg`iz men o‘zim,
Yana **meni oqlaysan**, ona. (T 5-bet)

¹ V Jabborov. Tajnis va kontaminatsiya xususida. “O‘zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2011-yil. 3-son, 91-bet.

Adabiyotda **tazod** keng uchraydigan she'riy san'atdir. Tazod so'zi " zid qo'yish", "qarshilantirish" ma'nolarini ifodalaydi. Shu so'z bilan ataluvchi she'riy san'at esa baytda o'zaro ma'no jihatdan zid, qarama-qarshi bo'lgan so'zlarni qo'llab,ta'sirchan badiiy timsollar ,lavhalar yaratishni nazarda tutadi.¹

Rauf Parfi ijodida zid ma'noli so'zlarning turli ko'rinishidan unumli foydalanib adabiyotimizda tozod san'atining go'zal ko'rinishlarini yaratgan. Biz ularni ba'zilarini ishimizda tahlil qilamiz. Shoir ijodini kuzatish davomida uning so'z qo'llashdagi ustaligi yaqqol namoyon bo'ladi. Shoirning boshqa ijodkorlarga o'xshamaydigan bu she'riy san'atni yaratishdagi mahorati , ya'ni bir bandning o'zida bir necha zid ma'noli so'zlarni qo'llanishi shoir ijodi qiymatini yanada oshiradi.

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,

Tomchilar tomchilar sochimga,

Yomg'ir yog'ar, shig'alab yog'ar,

Ham **qayg'umga**, ham **quvonchimga**.

(SD. 24-bet)

Yuqorida bandda keltirilgan **qayg'u va quvonch** so'zlari o'zaro leksik antonimdir. *Qayg'u* "boshga tushadigan ruhiy azob; g'am, musibat" (O'TIL.V.223-bet) degan ma'noni anglatadi. *Quvonch* leksemasi esa "*quvonch his-tuyg'usi; xursandlik* " (O'TIL.V.362-bet) ma'nosini ifodalaydi.

"O'lg'on da'vo qilganlar ..." so'zlar shoir ,

"**Oqni qora** deganlar ..." ayting,kimlar?!

Maqbara boshimga yiqilar hozir,

Yana tovush: "harom yegan hokimlar..."

¹ Hojiahmedov A. She'r san'atlarini bilasizmi? Toshkent. 1999. 18-bet

(OT. 3-bet)

Mazkur misrada *oq* va *qora* antonim soʻzlari qoʻllangan.

Oq (*qor, sut, paxta rangidagi*) (OʻTIL.III.175-bet) oʻzining rang semasidan chekinib, koʻchma maʼnodagi “*toʻgʻri, haqiqat*” (OʻTIL.III.175-bet) maʼnosida keltirilgan.

Qora leksemasi ham rang maʼnosidan chekinib, “*yolgʻon, nohaq*” maʼnosi qoʻllanmoqda. Misraning jozibadorligini oshirish maqsadida *oq* va *qora* zid maʼnoli soʻzlari qoʻllangan. Bunday naʼmunalar Rauf Parfi ijodida juda koʻp uchraydi va oʻzining mazmun-mohiyati bilan oʻzaro farqlanadi.

Kunduz oʻyga choʻmar, **tun** yaqin,

Osmon yangligʻ oqshom sharpasi –

Olis ufq poyida yorqin

Kunning qizil shohi pardasi.

(SD. 43-bet)

Kunduz va **tun** leksemalari ushbu misrada tazod sanʼatini vujudga keltirilgan. *Kunduz* soʻzi “*sutkaning quyosh chiqqandan to quyosh botguncha davom etadigan qismi*” ni (OʻTAIL 120-bet) bildiradi. *Tun* soʻzi “*sutkaning quyosh botgandan to quyosh chiqquncha davom etadigan qismi*” (OʻTAIL 120-bet) maʼnosini anglatadi. Kunning qismi nuqtai nazaridan **kunduz** va **tun** leksemalari tazodni vujudga keltirgan.

Goʻyo baribirdir **yaxshi** va **yomon**,

Yurak, senga borar koʻchalar ochiq...

Sachrab yonarsan-u boʻlmassan tamom,

Oʻtkinchi gʻamlarga achchiqma-achchiq.

Shoirning “Yurak” sheʼrida **yaxshi va yomon** zid maʼnoli soʻzlarini qoʻllagan. Bu soʻzlar koʻp maʼnoli soʻz boʻlib, yaxshi va yomon soʻzlarining bosh maʼnolari quyidagilar: **yaxshi** “*ijobiy sifat va xususiyatlarga ega boʻlgan, ijobiy baholanadigan talabga javob beradigan*” va **yomon** esa “*salbiy sifat va xususiyatlarga ega boʻlgan, salbiy baholanadigan, talabga javob bermaydigan*”. Ushbu sheʼrda shoir yurakka murojaat etib, **yaxshi** soʻzining “*ijobiy sifatlarga ega bolish*” maʼnosi bilan **yomon** soʻzining “*salbiy sifat va xususiyatlarga ega boʻlish*” zid semalaridir. Ushbu oʻrinda shoir koʻp maʼnoli soʻzlarning maʼno qirralarini ochish barobarinda tazodning ham gʻoʻzal naʼmunasi yaratgan.

Uning bilan kechgan damlardan

Senga qolgan **shirin xotira**.

Mening esa **achchiq gʻamlardan**

Tortib ketdi koʻzlarim xira.

(SD. 44-bet)

Ushbu bandda **shirin xotira, achchiq gʻamlar** soʻz birikmalaridagi **shirin** va **achchiq** leksemalari oʻzaro tazod sanʼatini hosil qilgan. Bu zid maʼnoli soʻzlar yuqoridagi bandda koʻchma maʼnoda qoʻllangan boʻlib, aslida ular “taʼm” maʼnosini ifodalaydi. **Shirin xotira** birikuvidagi *shirin* leksemasi “*kishiga rohat bagʻishlaydigan, xursand qiladigan*”, **achchiq gʻamlar** birikuvidagi *achchiq* leksemasi esa “*kishi izzat nafsiga tegadigan, xafa qiladigan*” kabi koʻchma maʼnoda qoʻllangan.

Ilhom izlab keldi birovi,

Birov senga qilindi surgun.

Kim **doʻst** edi, kim edi **yoving**,

Barchasini aytolmam bugun. (SD. 56-bet)

Mazkur bandda **do'st va yov** so'zlari o'zaro zid. **Do'st** leksemasi "*doim yaxshilik qilishni istaydigan , tarafini oladigan kishi* "(O'TAIL 71-bet) ma'nosini anglatadi. Do'st so'ziga antonim sifatida yov so'zi keltirilgan. Bu leksema "*qarama-qarshi maqsaddagi kishi* "(O'TIL.II.22-bet) ma'nosini ifodalaydi. **Yov** arxaik so'z bo'lib, **dushman** demakdir. Ushbu o'rinda tazod san'ati she'rning ta'sirchanligi hamda badiiyligini oshirish maqsadida qo'llangan.

Birga tug'ildik-ku, yuragim,
Jahonni kezmakka piyoda
Odimlarimiz birdir bizning
Shu **baxtli**, shu **badbaxt** dunyoda
Odamlarimiz birdir bizning.

(SD. 95-bet)

Baxtli va badbaxt leksik antonim bo'lib, bir xil o'zakli so'zdan so'z yasalgan. *Baxtli* "*hayotdan o'ta mamnun, bearmon va shod-u xurram yashaydigan*" (O'TAIL 41-bet) ma'nosini, *badbaxt* "*baxti kulmagan turmushdan yolchimagan, baxtsiz, baxtiqaro*" (O'TAIL 41-bet) ma'nosini bildiradi.

Shoir bu misrada bir xil o'zakli so'zlarni qo'llab, misradagi ohangdoshlik orqali she'rning mazmundorligini oshirgan va she'rgi o'ziga xos, go'zallik, nafislikni yuzaga keltirgan.

Men o'ylayman, nedan boshlay gap,
Sen o'ylaysan, ne qilay javob.
Na **kuladi**, na **yig'laydi** qalb,
Qarashlari yaxlagan sarob.

Ushbu banddagi “ *Na kuladi, na yigʻlaydi qalb*” misrasida antonim soʻzlar (***kuladi*** – ***yigʻlaydi***) soʻzlar qoʻllangan. Bu antonim soʻzlar feʼl soʻz turkumiga oid boʻlib, *yigʻlamoq* “*ruhiy yoki jismaniy azobga ekanini tivush chiqarib yoki chiqarmay, koʻz yoshi toʻkkan holda ifodalash*” (OʻTAIL. 103-bet) maʼnosini, *kulmoq* leksemasi esa “*xursandligini zavq-shavqini uzoq-uzoq tovushlar bilan ifodalash*” (OʻTAIL. 103-bet) maʼnosini anglatadi.

Shovullaydi shamol, uvlaydi,

Na tinim bor, na uyqu unda.

Alamini yoza bilmaydi,

Shodligin ham etolmas udda.

(SD. 18-bet)

Mazkur banddagi tazod (***alam*** – ***shodlik***) oʻzaro zid maʼno ifoda etmagan leksemalar boʻlib, shu kontekst ichida muallif tomonidan zidlik munosabatiga kirishtirilgan. *Alam* “*jismoniy qiynoq; azob; qiynoq*” (OʻTIL.I.66-bet) maʼnosini bildirib, bu leksemada “*jismoniy azob*”, “*qiynoq*” semalari bor. *Shodlik* “*shodxurram; xursandlik, sevinch, quvonch*” maʼnosini bildirib, shodlik leksema-sida “*quvonish*”, “*mamnunlik*” (“*tuygʻu*”) semalari mavjud. **Alam** leksemasidagi “*azob*” (*qiynoq*) semasi, **shodlik** leksemasidagi “*mamnunlik*” (*quvonch*) semasi zidlikni hosil qilgan. Ijodkorning bu oʻrindagi soʻz qoʻllash mahorati maʼnoni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Rauf Parfi ijodi kontekstual antonimlardan oʻrinli foydalanib tazodning eng goʻzal naʼmunalarini yaratgan.

Hayot jomi ichra oqamiz,

Goh xursand, gohi vayron,

Tevarakka hayron boqamiz,

Tevarakni qoldirib hayron. (SD. 143-bet)

Ushbu banddagi tazod (**xursand** - **vayron**) o‘zaro zid ma’no ifoda etmagan leksemalar bo‘lib, kontekst ichida muallif tomonidan zidlik munosabatiga kiritirilgan. **Xursand** “*hayotdan juda mamnun, kayfiyati juda yaxshi; shod, xurram; xushchaqchaq*”(O‘TIL.IV.427-bet) ma’nosini ifodalaydi. **Vayron** so‘zi esa “*buzulib, qulab xarobga aylangan uy-joy, imorat; ruhan, qalban juda nochor, ezilgan holatli, ko‘ngli buzilgan, xafa*” (O‘TIL.I.435-bet) ma’nosini ifodalaydi.

Xursand leksemasidagi **shod**, **xurram** semasi bilan, **vayron** leksemasidagi **ko‘ngli buzilgan**, **xafa** semalari o‘zaro zidlikni vujudga keltirgan va tazodni vujudga keltirgan.. Bu shoirning so‘zdan o‘rinli foydalanish mahoratining yana bir qirrasidan dalolat beradi.

Tashvishimni oqlarman,

Baxtini ardoqlarman

Qayta tug‘ilgan o‘g‘ilday.

(SD. 24-bet)

Tashvish – “*notinchlik, azob-qiynoq beradigan narsa-hodisa va shu tufayli yuzaga keladigan; kulfat, savdo*” (O‘TIL.IV.20-bet) ma’nosini bildiradi. **Baxt** “*hayotdan to‘la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat, qut*” ma’nosini bildiradi. **Tashvish** leksemasi “azob”(kulfat) semasi bilan, **baxt** leksemasi “*mamnunlik*” semasi bilan tazod san’atini hosil qilgan.

Qiynamag‘il meni, onajon.

Sen – **abadiy**, men – **lahza**, biroq

“Itoat et menga shul zamon

Yo aylagil telbani tuproq!”

(SD 30-bet)

Bu toʻrtlikda abadiy – lahza soʻzlari aslida zid maʼnoli soʻzlar emas. **Abadiy** (*vaqt eʼtibori bilan oxiri yoʻq; mangu, doimiy*(OʻTIL.I.25-bet)) leksemasidagi ”mangu” semasi ,**lahza** (*koʻz ochib yumgunchalik vaqt, on, soniya* (OʻTIL.II.493-bet)) leksemasidagi ”soniya” semasi bilan tazod sanʼati hosil qilinmoqda.

Uygʻon, ey, malagim, tur oʻrningdan, tur,

Uygʻon, ey, malagim, tur oʻrningdan, tur,

Otashin muzlarda isinaylik , yur.

(SD. 72-bet)

Otashin soʻzi “*qalb harorati bilan isitilgan, qizgʻin, joʻshqin; ehtirosli, alangali*” (OʻTIL.III.154-bet) maʼnosini anglatadi. **Muz** soʻzi “*suv nol darajasigacha sovish natijasida qotgan holati, yax*” (OʻTIL.II.629-bet) maʼnosini ifodalaydi. **Otashin** leksemasidagi issiq semasi, **muz** leksemasidagi sovuq semasiga ziddir. **Isimoq** “*oʻziga issiqlik olib, harorati koʻtarilmoq*” (OʻTIL.II.229-bet) maʼnosini bildiradi. Oʻz navbatida **muz** leksemasidagi sovush semasi bilan **isimoq** leksemasidagi *haroratli* semasi ham ziddir. Yozuvchi bir misraning oʻzida soʻzning leksik maʼnosidan foydalanib, oʻzaro zid boʻlgan bir necha soʻzni qoʻllay olgan. Bu hodisa oksyumoron hodisasi sanaladi.

Adabiyotimizda oksyumoron deb ataluvchi hodisada ham mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid boʻlgan ikki tushunchani ifodalovchi soʻzlar oʻzaro qoʻshib qoʻllaniladi. Oksyumoron grekcha soʻz boʻlib, “oʻtkir lekin bemaʼni” degan maʼnoni bildiradi. Ular ayrim adabiyotlarda “okkozional birikma”, “noodatiy birikmalar” yoki “gʻayriodatiy birikmalar”¹ deb ham yuritiladi. Bunday birikmalar individualligi, yangiligi, koʻnikilmaganligi va ohorliligi bilan tasvir ifodaliligini taʼminlaydi. *Otashin muz, yongʻinli daryo, soʻqir lomakon, qora nur, yalangʻoch shuur, yaxlagan sarob (R.Parfi), oppoq tun, soʻzsiz suhbat* kabi birikmalar oksyumoronga misol boʻladi. Bunday gʻayriodatiy

¹ Abduraxmonov H, Mahmudov N. Soʻz estetikasi. Toshkent:”Fan”, 1981. 38-47-bet.

birikmalar antitezaning bir ko‘rinishi sifatida talqin qilinadi. Ma’lumki, istalgan ikki so‘zni biriktirish bilan oksyumoron yuzaga kelavermaydi. Bunday birikmalar yozuvchining badiiy tafakkur mahsuli hisoblanadi. Shuning uchun g‘ayriodatiy birikmalarning mantiqsizlik bilan bog‘lash mumkin emas. Ularga estetik hodisa sifatida yondashish zarur¹.

Takrir san`ati she`rda u yoki bu so‘zni takror qo‘llashni nazarda tutadi³. Rauf Parfi ijodida takrirning turli ko‘rinishlarini uchratamiz :

1. So‘z takroridan vujudga kelgan takrir san`ati :

Vahshiy dunyo ,qonxo‘r dunyo quturdi,

Inson faryodiga to‘ldi koinot,

Nabiylar,dohiylar,shoirlar turdi,

“**Chora, chora** ”,-deya so‘rdilar najot. (T)

She`riy misrada so‘z takrori ma`noni ta`kidlash uchun xizmat qiladi. Badda qo‘llangan *chora* so‘zini takrorlashdan ko‘zlangan maqsad ham ayni shu. So‘z takroridan hosil bo‘lgan takrir san`ati fikrdagi qat`iyatni hamda his-tuyg`uni ,ruhiy kechinmalarni, qahramon ichki dunyosini ravshan ifodalaydi. Shoir ijodida bunday misralar talaygina.

Uyg`on, uyg`on, bolam, uyg`ongil, ey dil,

Uyg`ondan** iborat **uyg`otlik dunyo. (T 5-bet)

Misrada takrorlangan **uyg`on** so‘zi ma`noni ta`kidlashdan tashqari misradagi ohangdorlik va o‘ziga xos jiloni ta`minloagan. Takrir san`ati misradagi

² Yo‘ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent :”Fan”, 2007.73-bet.

³ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “sharq” nashriyoti. 1999. 100-bet

tovushlar uyg'unligi orqali misraning go'zal chiqishini ta'minlagan,shu orqali ichki ohang ham ta'minlangan.

2.Ikki tarkibli takrorlardan hosil bo'lgan takrir san`ati:

“Voh jonim voh jonim “ deb hirqirar

Derazamning ortida shamol

Yulib tashlasam edim jonimni qani (T)

Ushbu bandda takrir san`atini so'z ma'nosini , uning mohiyatini ta'kidlash ko'rsatish uchun qo'llangan. Bu takror so'z undov so'z va otdan tashkil topgan.

Nozim...Nozim...

Ketdi Nozim.

Qoldi Nozim **sadosi.**

Sadoning aks sadosi.

Aks-sadoning aks-sadosi. (T)

Bandda juft so'z takrori takrir san`atini vujudga keltirgan. Misra to'liq takrir san`atiga qurilgan. Aslini olganda,Rauf Parfining ijodini anglash,undagi ma'noni tushunish uchun uning falsafasidan ham xabardor bo'lish kerak. Chunonchi, zukko kitobxongina,mohir adabiyotshunosgina Rauf Parfi she'riy olamini anglay oladi.

3. Misra takroridan shakllangan takrir san`ati:

Yasatib qo'yibdi senga bir dunyo,

Orziqib kutadi bugun yuragim.

Mening yuragimga kelgil,marhabo,

Mening yuragimga kelgil,malagim. (S D 44-bet)

Takrir san`atining misra takrori ko`rinishidan foydalanib, ma`no kuchaytirish bilan birga his-tuyg`uning go`zal tasvirini ifodalashda foydalanilgan. Aynan misra takrori ijodkorning aytmoqchi bo`lgan fikrini kuchaytirib izohlaydi.

Hayron,mag`lub bu koinot,

O`ynar gullar,o`ynar nasim...

Ayting kimga etmish nasib,

Hayron,mag`lub bu koinot, (T)

Yoshlikni tarannum etuvchi she`rida misra takrori ma`no kuchaytirish hamda emotsionallikni oshirish maqsadida qo`llangan. Demak, takrir sa`nati nafaqat shakl uchun, balki mazmun-mohiyatga turlicha urg`ular berish uchun ham qo`llanar ekan. Shoir ijodi misolida buni ko`rishimiz mumkin:

Vido tabassumli olam, yoshligim,

Ko`zlarimda qotgan jolam, yoshligim,

Ko`klarga yetmagan nolam, yoshligim,

Suvda cho`kib ketgan bolam, yoshligim,

Vido tabassumli olam, yoshligim.

(SD. 139-bet)

4. Turli ko`rinishdagi butun bir band takriri:

Ufq yonar,Ufq.Uf-f!

Karvon borar qumlikda. **Qum.Qum...**

Tuyalarda hazing qo`ng`iroq,

Cho‘li Iroq, Cho‘li Iroq

Tun...Kun...Tun...

Har bir qatorda uchraydigan takror so‘zlar (Ufq,qum,cho‘li iroq,tun) misrada juda ko‘p vazifani o‘taydi: o‘ziga xos mazmuniy –falsafiy fikr bag‘ishlaydi; ohangdorlikni ta‘minlaydi; (*Ufq yonar,Ufq.Uf-f! Cho‘li Iroq,Cho‘li Iroq*) qofiyani vujudga keltirishga xizmat qiladi; (qo‘ng‘iroq-cho‘li iroq)

Rauf Parfi ijodi o‘ziga xos jilosi bilan kitobxon ruhiyatiga ta‘sir qilishida ayni turli xil badiiy san‘atlarning o‘rni beqiyosdir. Rauf Parfi ijodidagi mazmun-mohiyatni anglash uchun uning raufona dunyosi hamda adabiyotdan ham xabardor bo‘lish kerak. She‘riyatda shoirning birovdan yashiradigan maxfiy narsasi yo‘q. Faqat, she‘rning sir-asrori cheksiz imkoniyatlari chegarasizdir. Bu — badiiyatga aylangan qismat.

Shoir ijodida mukarrar san‘atining ajoyib na‘munalarini uchratamiz. “**Mukarrar**” so‘zi “qayta-qayta, ust-ustiga” ma‘nolarini ifodalaydi. Shu nom bilan ataluvchi lafziy san‘at esa baytning har ikki misrasida takror sozlarni qo‘llashni nazarda tutadi¹. Shoir ijodida uch qatordan iborat sher‘larni uchratamiz. Uch qatorgina she‘rda ijodkor juda chuqur mazmun-mohiyat hamda falsafani aks ettiradi. Bir she‘rida soat haqida fikr yuritib, vaqtning qnchalik ahamiyatli ekanligini mukarrar san‘atini qo‘llash orqali ifodalagan:

Kunduz **chiq-chiq-chiq**

Kecha **chiq-chiq-chiq**

O‘lmagan sening joning

Tardu aks shoirlar ijodida o‘ziga xoslik kashf etuvchi san‘atlardan hisoblanadi. *Tardu aks “teskari qilib takrorlash”* ma‘nosini ifodalab, she‘rning

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “sharq” nashriyoti. 1999. 100-bet

birinchi misrasida keltirilgan ikki soʻz yoki soʻz birikmalarini keyingi misrada oʻrni almashtirib qaytarishdan iborat boʻlgan sheʼriy sanʼatdir¹. Rauf Parfi ham ushbu sanʼatdan oʻziga xos foydalangan va betakror naʼmunalar yaratgan. Bu sheʼrda ham shakl, ham mazmunni shakllantirgan:

Tardu aks sanʼatining ikki xil koʻrinishi mavjud boʻlib, soʻz yoki soʻz birikmalari hech qanday oʻzgarishsiz aynan takrorlansa, **“aksi tomm”** (“toʻla aks”) deb, oʻzgartirib takrorlansa, **“aksi noqis”** (“nuqsonli aks”) deb ataladi².

Yoʻqlik bir armondir Armon – bir yoʻqlik

Armondan iborat borliq va lekin

Yerga choʻkkan mening armonim. (T 8-bet)

Rauf Parfi tasavvur dunyosi keng, u soʻzni xuddi dengiz toʻlqini kabi jilovlantira oladi va xuddi toʻpori ot kabi jilovlay oladi. Mohirlik bilan soʻz qoʻllaydi, bir qatorning oʻzida turli shakl va maʼno hamda falsafiy fikrlarni idrok qila oladigan shoirdir. Mazkur bandning birinchi misrasida ham tardu aksning **aksi tomm** turidan foydalanib, falsafiy fikrlarini roʻyobga chiqargan. Har bir inson dunyoga kelibdiki, u bilan orzu-umid, ehtiyoj, sabr-toqat, sevgi-muhabbat, dard-istirob kabi tuygʻular hamohang yashaydi. Shoir dastlabki jumlasida ayni shularni nazarda tutib, har bir insonga shu tuygʻulardan biri armonni ekanligini taʼkidlagan. Ikkinchi jumlada ham oʻzining badiiy maqsadini tardu aks sanʼati orqali amalga oshirib, har bir inson uchun armon bu dunyoda uning uchun yoʻq narsasi ekanligini badiiy ifodalashga harakat qilgan. Rauf Parfi siyqasi chiqqan odatiylikda yiroq, ammo hayot tasvirini jonli boʻyoqlarda aks ettiradi. Bu chizgilarni u kamalak ranglarida ifodalamay, balki boʻyoqlarni ham oʻzi yaratib hammani maftun etadi.

Telba-otash, deb meni pinhon,

Oʻylama sen mening yulduzim

¹ Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “sharq” nashriyoti. 1999. 89-bet

² Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati. Toshkent: “sharq” nashriyoti. 1999. 90-bet

Seni o‘ylay oldim-ku,inon,

O‘zimni ham o‘ylayman o‘zim. (T 10-bet)

Tardu aks san`ati XIV asardan boshlab keng qo‘llanila boshlagan<sup>1</sup>. Ijodkor bu sa`natni qo‘llashda ham shakl, ham mazmun qirralariga e`tibor qaratgan. Yuqoridagi bandda tardu aksning **aksi noqis** turi qo‘llangan bo‘lib, lirik qahramon “o‘ylama seni va seni o‘ylay” birikuvlari orqali poetik maqsadini ro‘yobga chiqargan.

Rauf Parfi shunchalik so‘zni mihirlik bilan qo‘llaganki, ijodkor butun bir misralardagi so‘zlarni teskari takrori orqali ham yuksak badiiy va falsafiy fikrlarini amalgam oshirgan:

O xayolning yo‘llari olis

Yana olislarga boshlar beshafqat

Olis u yo‘llarning xayoli. (T 7-bet)

Mazkur bandda tardu aks she`riy san`ati orqali o‘ziga xos ma`no ifodalangan. Shoir birinchi misrada insonning ruhiy holatini, ya`ni insonlar xayolga cho‘mganda xayol ularning o‘zining olis yo‘llariga boshlashini aks ettirgan. Birinchi misraning teskarisi uchunchi misrada qo‘llangan va ma`no yana ham kuchayib o‘ziga xoslik kashf qilgan: inson xayolga botganda uning yo‘llariga asir bo‘ladi va shu xayollarga birlik hosil qiladi.

Ijodkor misli rassom, uning bo‘yog`idagi ranglar insonlar dilini tasvirlashga qaratilgan, o‘zining tafakkuridagi har qanday o‘y-fikrlarni kitobxonga yetkazib berish va fikr dunyosi bilan oshno qilish ishtiyoji unda mujassam. She`r va shoir haqidagi fikrlarini asoslash maqsadida tardu aks san`atining butun bir misra ko‘rinishidagi so‘zlarni teskasi qo‘llash shakligan foydalangan:

¹ Mumtoz badiiyat malohati.Toshkent: “sharq” nashriyoti. 1999. 91-bet

Tovushlarning rangiga qarang

Qarang tez ranglarning tovushiga

Bu shoʻrlik oy ham shoirmi deyman. (T 7-bet)

Birinchi misrada shoir shoirlik masʼulyati haqida uzoqdan uzoq gapirmay, balki tovushlarga rang kiritish, yaʼni hissiyotga toʻla satrlar yaratish haqida fikr keltiradi. Uning nazdida chin shoir tovushlarni tasbeh misol teribgina qolmay, unga rang- rangin maʼno, olam qadar his-tuygʻu ifodalamogʻi darkor. Tardu aks sanʼatini yuzaga keltiruvchi ikkinchi satrda esa soʻz sanʼatini rassomlik ishtiyoqi bilan hamohang jilovlantiradi. Oyning siyratiga qarab, uning sariqlik belgisini yoʻqsil shoir deb tasvir etadi va ana shundan ohang izlaydi.

Biz ijodkor sheʼrlarida tardu aks sanʼatini tahlil qilish jarayonida bu sanʼatning sheʼriyatda kamroq uchraydigan bir koʻrinishiga guvoh boʻldik. Tardu aksning bu turida misrada soʻz qoʻllanib, keyingi misralarda aynan tovushma-tovush shu soʻzning teskarisi takrorlangan. Bunda shoir shaklga tayangan degan fikrga kelsak mutlaqo notoʻgʻri toʻxtamga kelgan boʻlamiz. Sababi “Ona Turkiston” toʻplamiga kiritilgan mazkur sheʼrda kichik syujet orqali hissiy kechinmalar ifoda etilgan, yaʼni ijodkor shu yerga tashrif buyurganda hayotning sertashvish lavhalarini koʻrganday boʻladi. Telefonlarning birida quvonchli xabardan kulgu, birida dardli tuygʻu orqali yigʻi boʻlayotganini tasvir etadi. Shuning uchun ham shoir birinchi misradagi soʻzlarni (Pochta . Telegraf. Telefon.), sheʼrning soʻngi misrasiga teskarisini takrorlaydi (Nofelet. Fargelet. Atchop.), bu orqali shoir dunyodagi kechinmalarni ham ikki xil koʻrinishi mavjudligini va oʻzaro doim ziddiyatda yashashini aks ettiradi. Bu ijodkorda oʻziga xoslik va individuallik kashf etadi:

Pochta . Telegraf. Telefon. Kirdim.


Bazoʻr olib keldim oyoqlarimni...

...Goh shunday boʻlurki, miyamda gʻashlik,

Burchakda oq, jiddiy tufdonlar faqat

Tutfuklarin sohib turar oljayib,

Nofelet. Fargelet. Atchop. Ketaman... (O T 22-bet)



Ishtiqaq yoki iztirob deb ataluvchi badiiy san`at nomini bildiruvchi leksema lug`aviy jihatdan yagona etimologik asosga bog`lanuvchi bir so`zdan boshqa bir so`zni hosil qilish degan ma`noni anglatadi. Bu istiloh shundan iboratki, shoir yoki yozuvchi nasr yoki nazmda bir o`zakdan hosil bo`lgan so`zlarni ishlatadi. Bu ta`rifga qo`shimcha tarzda yana shuni qayd qilish joizki, etimologik jihatdan bir o`zakka mansub bo`lgan so`zlarni ishlatiladi¹.

Asosan mumtoz adabiyotda ko`plab uchragan bu san`at Rauf Parfi ijodiga ham o`ziga xos jilo baxsh etadi:

Bugun shoh erurman, **tilak tilagil**,

¹ Boboyev T. She`r ilmi ta`limi. –Toshkent,1996. 37-bet.

Bugun men gadoman, tingla, malagim. (T 11-bet)

Tilamoq fe'li va shu fe'l asosida yasalgan **tilak** ot so'z turkumiga tegishli so'zlarining o'zaro misrada qo'llanishi ishtiyoq san'atini yuzaga keltirgan. Baytda oshiqning holati ajoyib tasvirlangan, oshiq mashuqasi bilan shunchalar baxtiyorki, go'yo shoh, mashuqaning tilaklarini ijobat qilmoq istaydi va gado kabi undan tinglashini o'tinadi. Mazkur ajoyib ma'noni va baytdagi shaklni yuzaga kelishida ishtiyoq san'atining o'rni beqiyos.

Ishtiyoq san'ati poetik so'z qo'llashning o'ziga xos ko'rinishlaridan biri – oddiy so'z o'yini emas, balki u yoki bu so'zning shakily o'zgarishi va uning semantik qamrovining kengayishi, ya'ni mazmun taqozosi bilan yuzaga keladi. Yangi shaklning hosil bo'lishi esa o'z navbatida dastlabki ma'no bilan bevosita bog'liq bo'lgan yangi tushunchaning yuzaga kelishiga ham asos bo'lib xizmat qiladi ¹. Ishtiyoq muayyan g'oyaviy va badiiy maqsadlarni amalga oshirish maqsadida Rauf Parfi ijodida ham qo'llangan:

Rabbi maskun ichra **sayyod**, o'zim **sayd**,

Ortiq madorim yo'q, voqifsan ahir.

Manglayda yozilgan farmoningni ayt,

Da'vat qil, gunohkor bandangni chaqir. (T 5-bet)

Sayd va sayyod so'zlari o'zaro **ishtiyoq** san'atini yuzaga keltirgan. **Sayd** so'zi arab tilidan o'zlashgan bo'lib, *ov qilish* ma'nosini anglatadi va fe'l so'z turkumiga kiradi, **sayyod** so'zi ham arab tilidan o'zlashgan bo'lib, *ovchi* ma'nosini ifodalaydi, shaxs oti hisoblanadi. Sayd va sayyod so'zlari bir o'zakdan yasalgan leksik birlik hisoblanib, ularning ishtiyoq san'atini hosil qilishi she'rdagi badiiyatni boyitishga xizmat qilgan. *Haq va haqiqat* so'zlari ham bir asosdan yasalgan leksik birlik hisoblanib, **ishtiyoq** san'atini yuzaga keltirgan:

¹ Boboyev T. She'r ilmi ta'limi. –Toshkent,1996. 37-bet.

Roviylar ne uchun? **Haq va haqiqat!**

Asirlik zanjirin parchalab tashla. (T 3-bet)

Bandda ijodkor o'zining ichki tuyg'ularini tarannum etar ekan, hammaning undan rozi bo'lishini va insonlar mehri bilan hamnafasligini ifodalagan. Cheksizlikning cheki birikuvining o'ziga ishtiyoqni yuzaga keltirgan, shuning o'zi ijodkorning qanchalar so'zga usta ekanligini ifodalaydi :

Yonib aytdim, **cheksizlikning cheki** bor,

Cheksizlikning cheklariga yetaman.

Mendan rozi bo'ling, tiriklar, do'st-yor,

Bir chimdim mehringiz olib ketaman. (T 4-bet)

Rauf Parfi ijodini kuzatar ekanmiz, faqat ijodkorning o'ziga xos ba'zi so'z yaratmalariga ham guvoh bo'lamiz. Baytda ishtiyoqni **uyg'on va uyg'otlik** so'zlari yuzaga keltirgan. Uyg'on so'zi fe'l so'z turkumiga kiradi, uyg'otlik so'zi esa sifatga tegishli bo'lib, shoirga tegishli so'z yaratmasidir. Bu yaratma orqali o'zining ma'nodor fikr dunyosi bilan kitobxonni oshufta qilgan:

Uyg'on, uyg'on, bolam, uyg'ongil, ey dil,

Uyg'ondan iborat **uyg'otlik** dunyo. (T 5-bet)

Rauf Parfi O'z Turk estetikasida Turon-Turkiston mavzui alohida sahifani tashkil etadi. «Turon-Turkiston mavzui miloddan avvaldan yozma adabiyotlarda yuz ko'rsatib keladi, - deb yozadi Rauf Parfi. – Misr-Babil, Xitoy-Hindiston, Rum, Eron, Ovrupo, Amerika singari Turon-Turkiston, Turk Dunyosi jahon ilmu fani, madaniyati, adabiyoti va san'ati xazinasiga o'zining munosib merosini berdi va berajakdir» .

Shoirning ko'nglini, ijodini bilmoqchi bo'lsang, uning ona yurtini borib ko'r, degan hikmat bor. Shoirning Vatani – bu uning sehrla, purhikmat ma'nolarni

o'ziga singdirgan sirli qiyofalar dunyosidir. Rauf Parfi lirikasidagi So'z, Ko'z, Qushcha, Buloq, Daraxt, Chiroq, Xayol, Nur singari obrazlar tagdor, purmahno mazmun ifodalashiga ko'ra timsolga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantiradi. Turkiy xalqlar taqdiridagi zilzilali voqealar mohiyatini aks ettiradi. Millat taqdirida o'chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuz yilliklarda mudragan jo'mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qo'yish, faollikka da'vat Rauf Parfining Turon-Turkiston mavzuidagi she'rlarining yetakchi xususiyatlaridan biridir¹:

Ulug` Turkistonim, oltin dalalar,

Oftob **sochqi sochar** bosh uzra balqib.

U sening tilingdan aytar allalar,

Qonim, ona tilim, oh, ona xalqim. (O T 13-bet)

Sochmoq fe'li asosida yasalgan **sochqi** so'zi misrada yonma-yon qo'llanib ishtiyoq san'atini shakllantirgan.

Ma'lumki, she'rda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin bo'lgan tushunchalarni anglatuvchi so'zlarning qo'llanish hodisasi adabiyotshunoslikda **tanosub** san'ati deyiladi. Badiiy san'atning bu turi ilmiy adabiyotlarda **muroatu-n nazir, tanosub, tavfiq, iytilof, talfiq** nomlari bilan han yuritiladi². **Tanosub** san'ati she'r baytlarida ma'no jihatidan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlar va ular vositasida obrazli ifodalar , lavhalar yaratishda yetakchilik qiladi. Rauf Parfi ijodida bu san'atning bir qator turlarini uchratdik:

- **Tanosub talmeh** – afsonaviy qahramonlarning nomlariga asoslangan san'atdir:

Yuragim zindoni, bir yalong`och dor,

¹ Rahimjonov N. Iymon asiri. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.

² Husayniy Ataulloh. Badoyi us-sanoyi. –Toshkent, 1989. 232-bet.

Sollanib turadir faqat men uchun.

Bunda bir muhabbat, zahri qatil bor,

Bu zindonda bir **Laylo bor, bir , Majnun.**

Mazkur bandda turkiy tillar rivojiga hissa qo'shgan bobokalonimiz Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonlaridan "sevgi haqidagi eng qayg'uli qissa" deb ta'riflangan "Layli va Majnun" dagi qahramonlar Layli va Majnun nomini keltirgan va tanosub talmehni ajoyib na'munasini yaratgan.

- **Tanosub tashxis** – she'r baytlarida jonsiz narsalarga inson xususiyatini ko'chirish san'atidir:

Ko'kda **oy, yulduzlar** kirganda so'zga

Aziz boshingizga sochar nurini. (T 11-bet)

"Alyor" she'ridan olingan mazkur misrada osmon jismlari nomi keltirilib, ularga insonga xos sifatlar berilgan, ya'ni to'y oqshomida ikki yoshga hatto oy-u yulduzlar ham ezgu tilaklar tilab, o'z nurlarini sochadi.

Yana bir ijod na'munasida vaqt tushunchasini birlashtiruvchi asr, yil va oy so'zlarini qo'llagan. O'ttiz, o'ttiz bir (ba'zan yigirma yetti, yigirma sakkiz) kunni o'zida birlashtiruvchi **oy** tushunchasi, o'n ikki oyni o'zida birlashtiruvchi **yil** tushunchasi hamda yuz yilni tashkil etuvchi **asr** tushunchalarini daraja asosida qo'llab, vaqt tushunchasini ifodalagan va tanosub san'atini yuzaga keltirgan:

Kechdi **asr. Yillar** va **oylar,**

Nelar kechdi boshingdan, eyvoh. (O T 20-bet)

Dodimni eshitgil, qodir **Allohim,**

Ishq sensan, **oshiq** ham sen , men **qulingman.**

Loyiqman qahringga , **do'zahir**- bog'im,

Omonat devorman, o'tman, **qulingman.** (T 5-bet)

Shoirning “Munajat” she’ri sof tasavvufiy yo’sinda yozilgan ijod na`munasi bo’lib, tasavvufiy ramzlar bilan bog’liq tushunchalar tanosub san’atini yuzaga keltirgan. Banddagi so’zlar tasavvufiy talqinga ko’ra vujudi mutlaq (yagona borliq) **Allohd**ir. **“Ishq”** – bandaning Allohga bo’lgan sevgisi, **“oshiq”** – Allohga yetishmoqni istagan kishi¹, **“qul”** – Allohga dil bergan, uning yo’liga kirganlar va **do’zah**. ijodkor so’zni o’rinsiz qo’llamaydi, balki birgina so’z orqali olam-olam ma’no ifodalaydi.

Ey Samo, ey Zamin, ey Inson – qodir,

Gullar , chechaklarga to’lsin oydin yo’l,

Nafosatga axir chidamli odam. (O T 20-bet)

Yuqoridagi bandda **gul va chechak** so’zlari tanosub san’ati hosil qilingan. Gul, chechak leksemalari *“o’simlikning , odatda, onalik va otaliklarini o’rab turgan tojibarg (gulbarg)lardan iborat gultoj shaklidagi qismi”*² degan ma’noni anglatadi. Gul tushunchasi chechakka nisbatan kengroq tushuncha , ammo ma’no jihatdan o’zaro yaqindir. Gul so’zi jonli tilda ham, kitob tilida ham keng qo’llaniladi. Chechak so’zi eskirgan, asosan, badiiy uslubda qo’llaniladi. Ijodkor har ikkilasini o’rinli qo’llab, tanosubni hosil qilgan. Shoirning:

Bir ajib **navoga** o’xshaydi,

Shoirga o’xshaydi bir hassos.

Miskin **soz chalmoqqa** u shaydir,

Dardiga bordir-ku bir asos. (T 4-bet)

baytida esa musiqa san’atiga oid **navo, soz, chalmoq** so’zlari jamlangan. Ular vositasida ijodkor shoirlarning ichki kechinmalarini jozibali bir tarzda aks ettirishga erishgan.

¹ Qosimov B, To’xliyev B, Yo’ldoshev Q. Adabiyot . 10-sinf uchun darslik . Toshkent: „o’qituvchi“nashriyoti. 2004. 234-235-betlar

² Hojiyev A. O’zbek tili sinonimlarining izohli lug’ati. Toshkent. 1974. 81-bet.

Tanosub san`ati Rauf Parfi ijodida ko`p qo`llangan va badiiylilikning ajoyib na`munasi desak yanglishmagan bo`lamiz. Mazkur misralarda ilmi kishilar nomi **nabiylar, dohiylar, shoirlar** tanosub san`atini shakllantirgan:

Vahshiy dunyo, qonxo`r dunyo quturdi,

Inson faryodiga to`ldi koinot.

Nabiylar, dohiylar, shoirlar turdi,

“chora,chora ”,-deya so`radi najot. (T 6-bet)

**Talmi`** - “rang-barang qilmoq ” ma`nosini ifodalaydi, she`r misralarini turli tillarda bitishni nazarda tutadi<sup>2</sup>. Adabiyotimiz sahifalarini ko`zdan kechirsak, ijodkorlarimiz arab va o`zbek, fors-tojik va o`zbek, rus va o`zbek tillarida shu san`atdan foydalanib, ajoyib ijod na`nunalarini yaratganlariga guvoh bo`lamiz.

“ Frunze?! Oltinchi **xonaga** kiring

Bu yerda so`rrayib turmang,azizim...”

Omonat kassasin qulog`i tirband,

O`likning og`zidek ochiq **daricha**.

Band *xona, omonat, kassa, daricha* kabi o`zlashma qatlam va o`z qatlam ya`ni o`zbekcha so`zlardan tarkib topgan. Xona so`zi **forscha** so`z bo`lib, “*uy; turar joy, bino*” (O`TIL.IV.410-bet) ma`nosini ifodalaydi. Omonat so`zi **arab** tilidan o`zlashgan bo`lib, “*ishonchlilik; to`g`rilik, halollik; saqlash uchun berilgan narsa; tuhfa, me`ros*” (O`TIL.III.124-bet) ma`nosini anglatadi. Kassa so`zi esa **italyancha** so`z bo`lib, “*pul, qimmatbaho qog`ozlar qabul qilinadigan va saqlanadigan muassasa va tashkilot*” (O`TIL.II.330-bet) ma`nosini bildiradi. Daricha so`zi **fors** tilidan o`zlashgan bo`lib, “*eshikcha, deraza; teshik*” (O`TIL.I.66-bet) ma`nosini ifodalaydi. Ushbu banddagi kabi xususiyatlar Rauf

² Hojiahmedov A. Mumtoz badiiyat malohati.Toshkent: “sharq” nashriyoti. 1999. 105-bet

Parfi ijodida juda ko‘plab uchraydi. Bir bandning o‘zida turli leksik vositalardan foydalanib, she`rdagi nafislik, nozik ma`no qirralarini oshirgan.

Shunday jimjit **zangori osmon** –

Zaminlarning nidosi **bekor**.

Naqadar, oh, axir bepoyon,

Sukunat deb atalgan **diyor**.

(SD 45-bet)

Zangori, osmon, zamin, bekor so‘zlari *fors-tojik* tilidan o‘zlashgan. *Nido, sukunat, diyor arab* tilidan o‘zlashgan so‘zlar qo‘llangan.

Xulosa.

Biz mazkur ikkinchi bobda lafziy san`atlarning Rauf Parfi ijodidagi o`rni va qo`llanishi haqida fikr yuritdik. Rauf Parfi ijodidagi lafziy san`atlarining ko`pginasi, shu jumladan, tajnis, tanosub, ishtiyoq, tazod, tardu aks, takrir, mukarrar, talmi` va shu kabi san`atlarni tahlil qildik. Tahlil jarayonida shoir ijodida mazmun-mohiyat, g`oya, shirali ohang, chuqur falsafa, o`ziga xos uslub, ba`zi takrorlanmas yaratmalar borligiga guvoh bo`ldik. Har bir san`atni shoir qo`llashda o`ziga xos mahorat ko`rsatgan. Rauf Parfi ijodi o`ziga xos jilosi bilan kitobxon ruhiyatiga ta`sir qilishida ayni turli xil badiiy san`atlarning o`rni beqiyosdir. Rauf Parfi ijodidagi mazmun-mohiyatni anglash uchun uning raufona dunyosi hamda adabiyotdan ham xabardor bo`lish kerak. She`riyatda shoirning birovdan yashiradigan maxfiy narsasi yo`q. Faqat, she`rning sir-asrori cheksiz imkoniyatlari chegarasizdir. Shoir o`ziga xos mazmun-mohiyatni satrlariga singdirishga harakat qilgan. Ba`zan bir san`atning turli ko`rinishlaridan foydalangan bo`lsa (tazod, ya`ni leksik, kontekstuallikka asoslangan, ko`p ma`nolilikka asoslangan va boshqalar), ba`zan ba`zi san`atlarning hech qaysi shoirda uchramaydigan ko`rinishlaridan (tardu aks, ya`ni birinchi misradagi so`zlarni (Pochta . Telegraf. Telefon.), she`rning so`ngi misrasiga teskarisini takrorlaydi ( Nofelet. Fargelet. Atchop.) foydalanib, nafaqat, rihyat tasviri ustasi ekanligini, bazan esa tilning cheksiz imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalangan (tajnis, ya`ni leksik omonimlikka asoslangan, leksik-morfologik usulga asoslangan tajnis) balki so`z qo`llashda ham o`ziga xos uslubi borligini isbotlagan. Shoir ijodidagi lafziy san`atlarni tahlil qilish jarayonida har bir she`riy san`at ijodkorining so`z qo`llash mahoratidan yuzaga kelishiga guvoh bo`ldik. Jumladan, ishtiyoqni shoir ijodidagi qo`llanishlari o`ziga xos ma`noni yuzaga keltirgan (Bugun shoh erurman, tilak tilagil, Bugun men gadoman, tingla, malagim. (T 11-bet) Tilamoq fe`li va shu fe`l asosida yasalgan tilak ot so`z turkumiga tegishli) Ushbu bobni tadqiq qilish jarayonida shoirning mahorati tengsiz, fikr dunyosi cheksiz ekanligiga yana bir bora guvoh bo`ldik.

III.Bob. Rauf Parfi ijodida bir paytning o`zida birdan ortiq san`atlarning qo`llanishi.

Erk, Haqiqat, Ezgulik va Go`zallikning tahmi, rangi, chehrasi umumbashariy. Dunyodagi barcha ellar va elatlar uchun tanish, jondosh va qondosh. Rauf Parfi she`riyatidagi Ishq, Qush, Daraxt, Nur timsollari erkka intilib yonib yashayotgan Shaxs ruhiy hayotini aks ettiruvchi yangi ramzli ma`nodorlik kasb etdi. Tomchida oftob aks etgani singari Rauf Parfi she`rlari — bu ichki «men» shaklida zohir bo`layotgan shaxsning namoyon bo`lish jarayonlarini aks ettiradi. Qaysi satrini o`qimang, undan shoirning nigohini tuyasiz, nafasini his etasiz. O`tkir, sinchkov, olov ko`zlarini ko`rasiz.

Hayot haqiqatini badiiy haqiqatga aylantirish o`zbek she`riyati taraqqiyotining barcha davrlari uchun ham bosh xususiyat bo`lib kelgan. Lekin unga erishish yo`llari ko`p, usullari nihoyatda xilma-xil. Shoir bu yorug` dunyoda yashayotgan Insonning cheksiz-chegarasiz kechinmalarini so`z bilan ifoda qilguvchi shaxsdir, — deydi Rauf Parfi. — Shoir ko`zining o`rnida daryolar oqqan, elkasida tog`lar yiqilgan, o`z tanidan chiqib, ruhga aylangan zotdir . Uning o`z tahbiri bilan aytganda, shoirni kuylatgan hazrati inson. Uning haqqi-huquqlari — she`riyatning ham haqqi-huquqlaridir. Jaholatning ranglarini, zulmning ma`nosini, zo`ravonlik, adolatsizlikning sirti shakar-botini zahar tabiatini obrazlar tiliga ko`chirgan timsolli haqiaqlar Rauf Parfi ijodiy individualligini tayin etadi.

Ushbu xususiyat Rauf Parfi O`zturk va boshqa bir qator shoirlarimizning (Cho`lpon Ergash, H.Xudoyberdieva. Shavkat Rahmon, Tohir Qahhor, Xurshid Davron, Abdulla Sher, Usmon Qo`chqor va h.k.) ijodiy izlanishlaridagi etakchi uslubiy yo`nalishdir. Majoziy obrazlilik — ramzlar vositasida fikrlash madaniyati XX asrning 70-yillaridan ehtiboran o`zbek she`riyatida etakchi tamoyilga aylandi.

Rauf Parfi qo`liga qalam tutgan asnolardan etiboran she`r — uning uchun qismatga, bir umrlik taqdirga aylangan edi. Rauf Parfinining nazdidagi shoir «jafokash shu xilqat aro qora qalamga hamnishin tutingan», g`amgusor va


motamsaro fikr sochayotgan» insondir, norizo odamdir. Ammo uning norizoligi avvalo o'ziga qaratilgan. Insonning «qafas ichra uyg'ongan navo», «toshloqlarda qon yutgan lola» singari ilojsizligi, «havosi so'rib olingan havo»dagi hayoti uni qiynaydi. Shoir 70-yillardayoq yozgani kabi: «Yuzma-yuz kelgandek go'yo o't va suv, Yuzma-yuz keladir shoir va zamon». Zero, «buyuk e'tiqoddir muborak ilhom» va shoirning yuragida qasos yashaydi, unda «sobit intiqom».

Yuksak ideallarga intilgan Rauf Parfining sevib ergashgan shoiri Blok she'rni tushuntirish imkonsizligini ta'kidlab «dostentning dastidan dodlagan» satrlarni bitgandi. Biz ham shoir fenomenni tushuntirish niyatidan yiroqmiz. Ammo bu ham bir urinishda. Rauf Parfining majoziy timsollardan tiklangan badiiy tafakkuri ilk satrlaridanoq erk istagi va ozodlik ruhi, jamiyatdagi zulmga, ijtimoiy adolatsizlikka, tengsizlikka, nohaqlikka qarshi isyon g'oyalari bilan to'yingandi. Rauf Parfi XX asr o'zbek poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy sanat darajasiga ko'tardi, sof tuyg'uning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini betakror yo'sinda omuxtalashtirdi. Uning go'zallik hodisasiga aylangan dardli she'riyatida Erk, Haqiqat, Ezgulik va Go'zallikning tamini tuyish, rangini ko'rish, chehrasiga tik boqish mumkin.

Rauf Parfini hayot haqiqati emas, qalb haqiqati ko'proq o'ziga tortadi. Mening nazarimda, u kundalik turmushda qanday yashamasin, odamlar bilan qay tarzda muloqot qilmasin, she'r yozayotganda qandaydir ruhiy yuksaklikda turib yozardi. Bir-ikki marta uning jahlini chiqarishga, fikrini shu taxlit bilishga urinib ko'rganman. «Nega siz ham «Oy chiqar goh zaholi, Qizlar ko'pdir vafoli» yoki «Kigadir yoqar rayhon, Kim atirgul shaydosi» singari satrlarni yozmaysiz?» - deb so'raganman. Va undan javob ololmaganman. Uning satrlari zalvorli, u donishmand, u vijdon singari bir so'roqchi. Bu fenoman hali o'rganilishi kerak. U o'zbek she'riy madaniyatidagi sərbast she'r tuzilishini o'zbek xalqining nafaqat orzu-armonlari, dardu-alamlari, shu bilan barobar yana tafakkur madaniyati, qalb zarblari, o'zbekona milliy ruhi bilan boyitdi, raufona oksimoron tisollar tizimini yaratdi. Hislar oqimi she'r musiqiyligini hosil etishi — yolg'iz Rauf Parfi ijodiy

izlanishlari uchun xos boʻlgan betakror samaradir. Satrlardagi ichki qofiyalanish, alliterastiya — ohangdosh soʻzlar bilan boyitilish sherning tafakkur toʻlqinining ong-shuurlarda mixlanib qolishini taminladi¹.

Rauf Parfi ijodida odatiyliklardan qochish kuzatiladi, u sheʼriy sanʼatlarni sheʼriyatiga singdirishga harakat qilmaydi, balki uning ijod olamiga sheʼriy sanʼatlarning oʻzi tashrif buyuradi. Ijodkor sheʼrlarida birdan ortiq sheʼriy sanʼatlar talaygina.



¹ Rahimjonov N. Iymon asiri. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.

Misrani boshlamasidayoq fikrni izchilligini hamda ta'sirchanligini kuchaytirish maqsadida **takrir** san'ati (misra boshidagi "bugun" hamda ikkinchi misradagi "bugun" so'zlari) qo'llangan.

Baytdagi **Tilamoq** fe'li va shu fe'l asosida yasalgan **tilak** ot so'z turkumiga tegishli so'zlarining o'zaro misrada qo'llanishi **ishtiyoq** san'atini yuzaga keltirgan. Baytda oshiqning holati ajoyib tasvirlangan, oshiq mashuqasi bilan shunchalar baxtiyorki, go'yo shoh, mashuqaning tilaklarini ijobat qilmoq istaydi va gado kabi undan tinglashini o'tinadi. Mazkur ajoyib ma'noni va baytdagi shaklni yuzaga kelishida **ishtiyoq** san'atining o'rni beqiyos. Baytda shoir tazod san'atining ham ajoyib na'munasini yaratgan. Shoh va gado so'zlarining misralarda o'zaro qo'llanishi **tazod**ni shakllantirgan. Shu o'rinda **oshiq** o'zini **shoh** va **gadoga** o'xshatgan va **tashbihni** yuzaga keltirgan. Ushbu banddagi "**malagim**" so'zi o'z ma'nosida qo'llanayotgani yo'q, ya'ni shoir haqiqiy malak, ya'ni farishtaga emas, balki malak kabi go'zal mahbubaga murojaat qilmoqda. Binobarin, malak so'zi mahbuba, inson ma'nosida ishlatilgan va **istioraning** go'zal na'munasi yaratilgan.

Rauf Parfi ijodida **nido** san'atining oddiy ko'rinishidan tashqari majoziy ma'nodagi va istioraga asoslangan ko'rinishlari ham mavjud. Bunda ,asosan, ijodkor murojaat qilayotgan narsa-buyum va shaxs ko'chma ma'no ifodalaydi. Baytdagi "malagim" so'zi ayni shu vazifani bajaryapti va nido san'atini shakllantiryapti. Birgina baytning o'zida o'nga yaqin she'riy san'atni qo'llay olish ijodkorning so'z ustasi, ruh-tasvir san'atkori ekanligini yana bir bor isbotlaydi.

Ijodkor she'rlari mavzu jihatdan xilma-xil. Ammo u oddiylik va odatiylikdan olisda ijod qiladi, she'riyatni hech qaysi tarozida o'lchamaydi, hech narsaga tenglashtirolmaydi. She'riyat uning uchun ko'ngil deb atalmish koshona kaliti, dard deb atalmish tuy'g'u boshlanmasi, yurak ishidir. Fikrlashi teran, ijod dunyosi boy, ruhiy olami cheksiz ijodkor- Rauf Parfi she'rlarining yetakchi g'oyasi bu ona vatanidir. Vatanni madh etishni o'zining buyuk burchi, shoirlikning ma'uliyati deb biladi:

Tikkandir jonini Vataniga u,

Bu soʻz qarshisida titrama, ey jon.

Yuzma-yuz kelgandek goʻyo oʻt va suv

Yuzma-yuz keladir shoir va zamon. (O T 140-bet)

Soʻz qarshisida jonning titrash holati tashxis sanʼatini yuzaga keltirgan, titrash jarayoni insonga xos boʻlib, mazkur oʻrinda jonga koʻchirilgan. **“Ey jon”** murojaati esa **nido** sanʼatini shakllantirgan. **Oʻt va suv** soʻzlari kontekstda zidlik ifodalamoqda va **tazod** sanʼatini vujudga keltirgan. Ikki misrada *“yuzma-yuz kelmoq”* birikuvi takrorlangan va **takrir** sanʼati qoʻllangan. Shoir va zamonning yuzma-yuz kelishini oʻt va suvni yuzma-yuz kelishiga oʻxshatgan, buni oʻxshatish qoʻshimchasi *–dek* hamda *goʻyo* soʻzlari taʼminlagan va **tashbih**ning ajoyib naʼmunasi yaratilgan.

Yomgʻir yogʻar, shigʻalab yogʻar,

Tomchilar tomchilar sochimga,

Yomgʻir yogʻar, shigʻalab yogʻar,

Ham qaygʻumga , ham quvonchimga. (SD 24-bet)

Birinchi misra takrori uchinchi misrada takrorlanib, **takrir** sanʼatining misra takrori koʻrinishi qoʻllangan. Takrir sanʼati qoʻllangan misradagi **shigʻalab** soʻzi **soʻzlashuv uslubiga** xos boʻlib, *“yomgʻirning tushish holati”* maʼnosida qoʻllanmoqda. Sheʼrda bu soʻz oddiy, sodda boʻlsa-da, oʻrinli qoʻllanilib kitobxonga estetik zavq bagʻishlaydi. Mazkur banddagi **“Tomchilar tomchilar sochimga”** misrasidagi *tomchilar, tomchilar* soʻzlari sheʼrga oʻynoqi ohang va nafislikni taʼminlashga xizmat qilmoqda. Birinchi qoʻllangan **tomchilar** soʻzi – *tomchi \ot\+lar \koʻplik qoʻshimchasi* shaklida. Ikkinchi qoʻllangan **tomchilar** (**tomchi+la \feʼl yasovchi qoʻshimcha\+r \ feʼlning zamon kategoriyasiga oid qoʻshimcha \dan iborat.** Ijodkor bu oʻrinda tajnis sanʼatini ajoyib naʼmunasini

yaratish bilan birga misradagi o'ynoqi ohangni ham ta'minlay bilgan. Badda keltirilgan **qayg'u va quvonch** so'zlari o'zaro **tazod** san'atini shakllantirgan. *Qayg'u "boshga tushadigan ruhiy azob; g'am, musibat"* (O'TIL.V.223-bet) degan ma'noni anglatadi. *Quvonch* leksemasi esa "*quvonch his-tuyg'usi; xursandlik*" (O'TIL.V.362-bet) ma'nosini ifodalaydi.

Sevinch, biror marta qayg'urganmisan,

Kulgu, yig'laganmisan biror marta bo'lsin

Do'st bo'lolmassiz men bilan. (T 7-bet)

Rauf Parfi lirikasi yangiliklarga boydir, chunonchi uch qatordan iborat qofiyasiz, hech bir adabiyot qoidalariga bo'ysunmaydigan she'rlar mavjud. Shoirning bundan ko'zlangan asosiy maqsadi esa yangiliklarga boy ijodkor sifatida tanilish emas, balki she'riyatni ko'ngil mulkiga aylantirish va uning dil torini chertayotgan ohangiga turli ranglar uyg'unligini kashf etishdir. Yuqorida keltirilgan misralar ham xuddi shu she'rlar sirasiga kiradi. O'zaro zid tuyg'ular orqali falsafiy fikrlarini kitobxonga yetkazib bergan. Tuyg'ularni obraz darajasiga ko'targan va ularning ham ichki kechinmalari bilan o'rtoqlashmoqni istaydi. Insonlarning ichki kechinmalarini yuzaga chiqaruvchi hodisalar: yig'lash("*ruhiy yoki jismaniy azobga ekanini tivush chiqarib yoki chiqarmay, ko'z yoshi to'kkan holda ifodalash*" (O'TAIL. 103-bet)) ,qayg'urishni tuyg'ularga: sevinch va kulgu ("*xursandligini zavq-shavqini uzoq-uzoq tovushlar bilan ifodalash*" (O'TAIL. 103-bet))ga ko'chiradi. **Sevinch va kulgiga** murojaati bevosita **nido** she'riy san'atini ham yuzaga keltiradi. Bundan tashqari, adabiyotimizda **oksyumoron** deb ataluvchi mantiqan biri ikkinchisini inkor etadigan, bir-biriga mazmunan zid bo'lgan ikki tushunchani ifodalovchi so'zlar o'zaro qo'shib qo'llaniladigan hodisa ham qo'llangan¹. (**Sevinch qayg'urganmisan. Kulgu yig'laganmisan**) Rauf Parfi hayvonlar, qushlar, jonsiz va mavhumiy narsalarni shu xilda tasvirlash vositasida she'riy asarda ilgari surgan muayyan g'oyani aniqroq

¹ Abduraxmonov H, Mahmudov N. So'z estetikasi. Toshkent: "Fan", 1981. 38-47-bet.

ifodalaydi, shuning uchun tasvirlanayotgan lirik timsollar yorqirroq, jozibadorroq, jonliroq aks etgan.

*Bul xafa **kecha kechar**,*

Quvgay uni oftob.

*Bul kecha **pardek uchar**,*

Qo'ynida majhul sarob.

(SD. 140-bet)

Bandning birinchi misrasida **kecha** (ot) va **kechar** (fe'l) so'zlari orqali **ishtiqoq** san'ati qo'llangan, bir o'zakdan iborat bu ikki so'z nafaqat ma'no, balki ohangdorlikni ta'minlash uchun ham xizmat qilgan. Ikkinchi misrada odamga xos bo'lgan *quvish(quvlash) harakati oftobga ko'chirish* orqali **tashxis** san'atini yuzaga keltirgan. Uchinchi misrada kechalarning qo'ynidagi majhul sarob holatini parni uchish holatiga –dek qiyoslash qo'shimchasi orqali o'xshatib, **tashbih** san'atining ajoyib na'munasi qo'llangan. So'nggi misrada sarobga nisbatan majhul **sifatlashi** qo'llangan. Majhul so'zi eskirgan so'z bo'lib, “noma'lum, noaniq ” (O'TIL.II.524-bet) ma'noni anglatadi. Ijodkor eskirgan so'zlarni ma'lum bir poetik maqsadini amalga oshirishda qo'llagan. Mazkur so'zni shoir nutqqa ko'tarinki, nazokatlilikni ifodalash uchun qo'llagan.

G'unchalar pushtirang va za'far

Zangori yaproqlar shahrida .

***G'unchalar orzumdek** har safar,*

***G'unchalar qalbimning bag'rida...** (SD 39-bet)*

Rauf Parfi misralarida she'riy san'atlarning go'zal na'munasini yaratish bilan birga har bir so'zni yangi ohangda va shukuhda tarovat etishini ta'minlaydi. Mazkur satrda qo'llangan zangori so'zi “sariq-yashil rang”ni (O'TIL. II. 130-bet)

ifodalamoqda. Bundan tashqari zangori soʻzining gulga nisbatan ishlatilgan oʻrni ham Rauf Parfi ijodida uchraydi. Ijodkorning bunday soʻz maʼnolari qoʻllash mahorati diqqatga sazovordir. Shoir gʻunchalarni orzusiga oʻxshatadi va **tashbihni** vujudga keltiradi. Mazkur misrada tashbihni hosil qiluvchi vosita – dek qoʻshimchasi, oʻxshatilmish – gʻuncha, oʻxshamish – orzu. Shoir gʻuncha haqida mulohaza yuritib, qalbda yangi paydo boʻlayotgan orzularni gʻunchalarga qiyoslaydi. Bandning uchinchi va toʻrtinchi misralaridagi gʻunchalar soʻzlari **tajnisni** shakllantirgan. Misrada qoʻllangan birinchi **gʻunchalar soʻzi - gʻuncha** \ot\+lar \koʻplik qoʻshimchasi\ (“hali ochilmagan gul, gulbarglari hali yozilmagan gul” (OʻTIL.V.460-bet) shaklida, ikkinchi qoʻllangan **gʻunchalar (gʻuncha+la** \feʼl yasovchi qoʻshimcha\+r\ feʼlining zamon kategoriyasiga oid qoʻshimcha \dan (“gʻuncha paydo qilmoq, gʻuncha chiqarmoq” (OʻTIL.V.460-bet)) iborat.

Yaproqlarda shamol oʻynar,

Suv mavjida oʻynar shamol.

Sarin shamol nima soʻylar,

Yuragida qanday xayol?

(SD 25-bet)

Mazkur bandda ijodkor shamolni obraz darajasiga koʻtargan va oʻzining badiiy fikrlarini shamol vositasida ochib bergan. Dastlabki baytda **tardu aks** sanʼatidan mohirlik bilan foydalangan, yaʼni yaproqlarda shamol oʻynaydi, suv mavjida oʻynaydi shamol. Keyingi satrlarda insonga xos soʻylash (gapirish) va yurakda xayol tugish holatini shamolga koʻchirib, **tashxis** sanʼatini shakllantirgan.

Uygʻon, ey, malagim, tur oʻrningdan, tur,

Otashin muzlarda isinaylik , yur.

(SD. 72-bet)

Rauf Parfi idroki keng, tasavvur dunyosi boy, xayolat tafakkurining chegarasi yo‘q. U yo‘qlikdan borni izlaydi, uni o‘z purma‘no so‘zlari bilan ifodalashga harakat qiladi va topa oladi. Dastlabki satrda “**malagim**” so‘zi qo‘llangan, bu so‘z o‘z ma‘nosida qo‘llanayotgani yo‘q, ya‘ni shoir haqiqiy malak, ya‘ni farishtaga emas, balki malak kabi go‘zal mahbubaga murojaat qilmoqda. Binobarin, malak so‘zi mahbuba, inson, suvikli yor ma‘nosida ishlatilgan va **istioraning** go‘zal na‘munasi yaratilgan. Ayni shu so‘z orqali **nido** san‘ati ham yuzaga kelgan, ya‘ni lirik qahramon suyuklisiga murojaat qilgan. Keyingi satrda **Otashin** so‘zi “*qalb harorati bilan isitilgan, qizg‘in, jo‘shqin; ehtirosli, alangali*” (O‘TIL.III.154-bet) ma‘nosini anglatadi. **Muz** so‘zi “*suv nol darajasigacha sovish natijasida qotgan holati, yax*” (O‘TIL.II.629-bet) ma‘nosini ifodalaydi. **Otashin** leksemasidagi issiq semasi, **muz** leksemasidagi sovuq semasiga ziddir. **Isimoq** “*o‘ziga issiqlik olib, harorati ko‘tarilmoq*” (O‘TIL.II.229-bet) ma‘nosini bildiradi. O‘z navbatida **muz** leksemasidagi sovush semasi bilan **isimoq** leksemasidagi *haroratli* semasi ham ziddir. Yozuvchi bir misraning o‘zida so‘zning leksik ma‘nosidan foydalanib, o‘zaro zid bo‘lgan bir necha so‘zni qo‘llay olgan. Bu hodisa oksyumoron hodisasi sanaladi.

Shovullaydi shamol, uvlaydi,

Na tinim bor, na uyqu unda.

Alamini yoza bilmaydi,

***Shodligin** ham etolmas udda.*

(SD. 18-bet)

Ijodkor she‘rlarini kuzatish jaroyonida jonsiz narsalarni lirik qahramon darajasiga ko‘targanlik holatiga guvoh bo‘ldik. Goh tuyg‘ularni (sevinch, qayg‘u, alam)jonlantirsa, goh tabiat hodisalarini (shamol, daraxt), goh osmon jismlarini (oy, yulduz, osmon), goh jonzotlarni (qushcha), goh jamiyatda uchraydigan detallarni (nur, sham, qalam) jonlantirganiga guvoh bo‘lamiz.

Mazkur bandda insonlarga xos bir qancha xususiyatlarni shamolga ko‘chirilganiga guvoh bo‘lamiz. O‘z navbatida bu **tashxis** san‘atini vujudga keltiradi.

Mazkur banddagi **alam** va **shodlik** so‘zlari o‘zaro zid ma‘no ifoda etmagan leksemalar bo‘lib, shu kontekst ichida muallif tomonidan zidlik munosabatiga kiritirilgan. *Alam* “*jismoniy qiynoq; azob; qiynoq*” (O‘TIL.I.66-bet) ma‘nosini bildirib, bu leksemada “*jismoniy azob*”, “*qiynoq*” semalari bor. *Shodlik* “*shod-xurram; xursandlik, sevinch, quvonch*” ma‘nosini bildirib, shodlik leksema-sida “*quvonish*”, “*mamnunlik*” (“*tuyg‘u*”) semalari mavjud. **Alam** leksemasidagi “*azob*” (*qiynoq*) semasi, **shodlik** leksemasidagi “*mamnunlik*” (*quvonch*) semasi zidlikni hosil qilgan va **tazod**ning ajib ko‘rinishi shakllangan. Ijodkorning bu o‘rindagi so‘z qo‘llash mahorati ma‘noni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Seni menga betob dedilar,

Bu so‘z yomon, bu so‘z ko‘p og‘ir.

Seni menga betob dedilar,

Oqdi yoshim misoli yomg‘ir. (T 11-bet)

Birinchi misra va uchinchi misrada **takrir** san‘atining misra takrori (***Seni menga betob dedilar***) ko‘rinishi orqali ichki kechinmalar jonli bo‘yoqlarda ifodalangan. Bandning oxirgi misrasida lirik qahramonning ruhiy holati **tashbih** san‘ati orqali ochib berilgan *ko‘zdan oqqan yoshni yomg‘irga qiyoslab*, she‘rdagi badiiylik yanada oshirilgan. Bu badiiy maqsad *misoli* o‘xshatish leksik vositasi orqali amalga oshirilgan.

Qara, qanday porloq erur ko‘k,

Tingla, qo‘shiq aytar yulduzlar.

Bu – oy to‘kkan shu‘la emas, yo‘q,

Bu – navoga aylangan so‘zlar.

Mazkur satrda ma`nodosh sifatida qo`llangan *qo`shiq va navo so`zlari* “*keng ma`noda she`riy musiqiy janr*”(O`TIL.V.419-bet) ma`nosini biliradi.. *Kuy, navo, ohang, xonish* kabi so`zlar bilan sinonimlikni hosil qiladi. **Qo`shiq** so`zi umumnutq qatlamiga oid. **Navo** leksemasi esa badiiy uslubga xos. Bu ikki so`z bandda **tanosub** san`atini yuzaga keltirgan. Insonga xos qo`shiq kuylash jarayoni yulduzga ko`chirilib **tashxis** san`ati shakllantirilgan. Shoir oxirgi baytda osmonni yorug`ligini oy to`kkan shu`la deydi, shu miraning o`zi va keyingi misrada fikridan qaytib, yo`q bu navoga aylangan so`zlar deya ta`kidlaydi va **ruju`** sanatining ajoyib na`munasini yaratadi.

Go`yo baribirdir yaxshi va yomon,

Yurak, senga borar ko`chalar ochiq...

Sachrab yonarsan-u bo`lmassan tamom,

O`tkinchi g`amlarga achchiqma-achchiq.

Shoirning “Yurak” she`rida **yaxshi va yomon** antonimlari qo`llangan. Bu so`zlar ko`p ma`noli so`z bo`lib, yaxshi va yomon so`zlarining bosh ma`nolari quyidagilar: **yaxshi** “*ijobiy sifat va xususiyatlarga ega bo`lgan, ijobiy baholanadigan talabga javob beradigan*” va **yomon** esa “*salbiy sifat va xususiyatlarga ega bo`lgan, salbiy baholanadigan, talabga javob bermaydigan*”. Ushbu she`rda shoir yurakka murojaat etib, **yaxshi** so`zining “*ijobiy sifatlarga ega bolish*” ma`nosi bilan **yomon** so`zining “*salbiy sifat va xususiyatlarga ega bo`lish*” zid semalaridir. Ushbu o`rinda shoir ko`p ma`noli so`zlarning ma`no qirralarini ochish barobarinda tazod san`atining ham g`o`zal na`munasi yaratgan. Yurakka murojaat qilib, uni jonlantirgan va **nido** hamda jonlantirish san`atini vujudga keltirgan.

Hayot jomi ichra oqamiz,

Goh xursand, gohi vayron,

Tevarakka hayron boqamiz,

Tevarakni qoldirib hayron.

(SD. 143-bet)

Ushbu banddagi **xursand** - **vayron** o'zaro zid ma'no ifoda etmagan leksemalar bo'lib, kontekst ichida muallif tomonidan antonimlik munosabatga kiritirilgan. **Xursand** “*hayotdan juda mamnun, kayfiyati juda yaxshi; shod, xurram; xushchaqchaq*”(O‘TIL.IV.427-bet) ma'nosini ifodalaydi. **Vayron** so'zi esa “*buzulib, qulab xarobga aylangan uy-joy, imorat; ruhan, qalban juda nochor, ezilgan holatli, ko'ngli buzilgan, xafa* ” (O‘TIL.I.435-bet) ma'nosini ifodalaydi. **Xursand** leksemasidagi **shod, xurram** semasi bilan, **vayron** leksemasidagi **ko'ngli buzilgan, xafa** semalari o'zaro zidlikni vujudga keltirgan va **tazod** san'atini hosil qilgan. Bu shoirning so'zdan o'rinli foydalanish mahoratining yana bir qirrasidan dalolat beradi. Bandning oxirgi baytida **tardu aks** san'atning bir ko'rinishi qo'llangan. Baytning birinchi misrasida inson bo'layotgan voqealardan tevarakka hayron boqishi aks ettirilgan bo'lsa, ikkinchi misrada tevarak bulardan hayron qolishi aks etgan. Shoirdagi bunday mahoratni talaygina boshqa ijodkorlar she'rlarida ham kuzatish mumkin, ammo Rauf Parfidagi falsafa, ruhiy olam tasviri o'ziga xoslik kashf etadi. Shu sababli shoir she'rlari mazmun-mohiyatni anglashga chorlaydi.

Boshin zo'rg'a tutar o'g'ir ustunlar

Zalga uymalashgan jonlarga qarab,

Bu yer g'ovuriga beparvo, behis

Pochta qutilari turishar uzun.

(SD 164-bet)

Bandda **talmi** san'ati qo'llangan. Bandda qo'llanilgan **zal** so'zi nemis tilidan o'zlashgan bo'lib, “*idora, korxona va muassasalarda turli marosimlar*

o'tkaziladigan katta va keng xona ” (O‘TIL.II.126-bet) ma`nosini bildiradi. **Pochta** so‘zi esa italyancha so‘z bo‘lib, “*xat, xabar, gazeta, jurnal, hujjat, pul va shu kabilarni qabul qilib, tayinlangan kishiga yoki joyga yetkazib beradigan davlat aloqa muassasasi*” (O‘TIL.III.302-bet) ma`nosini ifodalaydi. Ustunlarning boshini zo‘rg‘ tutish holati, pochta qutilarining beparvolik holatlari **tashxis** sa`natini yuzaga keltirgan.

Shu gaplar rost bo‘lsa yolg‘izim yig‘lab,

Senga o‘lim tilab qolar edim men.

Yo‘q, yo‘q mozoringni o‘pib, timdalab

Qayta tiriltirib olar edim men.

Mazkur bandda **mubolag`aning** ig`roq turi qo‘llangan bo‘lib, tasavvurda mumkin, ammo amalda mumkin bo‘lmagan voqea tasvirlangan. Ya`ni oshiq mashuqasini xiyonat qilganligidan shubhalanyapdi, agar bu gaplar rost bo‘lsa, mashuqaga o‘lim tilaydi, yo‘q , balki uni mozordan chiqarib olib, qayta jon bag`ishlaydi. Shu bandning o‘zida **ruju`** san`ati ham qo‘llangan bo‘lib, yorini xiyonat qilganidan shubhalangan oshiq dastlabki hukmni “o‘lim tilardim”,- deb ifodalaydi, keyingi misrada o‘z fikrini inkor qilib, tirilitib olishini aytadi.

Nido – murojaat, o‘ksinish, gina , xayrixohlik ma`nolari ifodalovchi poetik vosita. Mohir ijodkor ,ayniqsa osmon jismlari bilan bog`liq turli bu san`at na`munalarini yaratgan:

Oy, nuringni yig`ishtirib ol,

Qora pardangni tashla yuzingga, tun

Men yorim-la vidolashgani keldim. (T 7-bet)

Badiiy adabiyotda oy obrazi juda mo‘l ishlatilgan, boisi oy shoirlarning ilhom parilarni chorlaydi, oshiqlarning dil iztiroblariga hamdam va dardkash hisoblanadi. Mazkur misrada tashxis san`atidan mohirlik bilan foydalangan shoir tun va oy

misolida buni dalillab beradi. Qadimda ayollarimizga xos boʻlgan yuziga parda tashlash hodisasini oyga koʻchirib **tashxis sanʼatini** vujudga keltirgan, shuning bilan birga **husni taʼlil** yani “chiroyli dalillash ” sanʼatida han ustalik bilan foydalangan. Mazkur oʻrinda **oy** hamda **tunga** murojaat mavjuli bois **nido** saʼnati shakllangan.

Nola aylab Semurg` dedi: E, bedor,

Chorlar seni biru borim. Bor, ishon!

Sen fano vodiysi, Haq qoshiga bor,

Yer-u osmon cho`kmakdadur benishon.

(T. 2-bet)

Shoirning “Tavba” deb nomlangan sheʼri falsafiy fiklar bilan birga sheʼriy sanʼatlarning ajoyib naʼmunalariga boy desak yanglishmagan boʻlamiz. Toʻrlikning birinchi misrasida *Semurg`* afsonaviy qushining nomi qoʻllanib **talmih** sanʼati vujudga keltirilgan. *Semurg`* - sharq xalqlari ogʻzaki poetik ijodida afsonaviy qush. *Semurg` qushining soʻzlashi* badiiy adabiyotda jonsiz narsalarni va hayvonlarni soʻzlashidan vujudga keladigan sheʼriy sanʼat – **intoqni** yuzaga keltirgan. Shu misraning oʻzida “*E, bedorlar*” murojaati mavjud boʻlib, bu **nido** sheʼriy sanʼatini shakllantiradi. Ikkinchi misrada *borim* va *bor* soʻzlari **ishtiyoq** sanʼatini yuzaga keltirgan. *Yer va osmon* soʻzlari zid maʼnoli soʻz boʻlib, mazkur bandda **tazod** sanʼatini shakllantirgan.

Aytgil nechun bunchalar qiziq,

Eski jahon, bu eski jahon.

Bir sheʼr kerak non kabi issiq,

Menga bir sheʼr kerak, ey mezbun.

(T. 3-bet)

Quyida keltirilgan bandda shoir o'zidagi ichki kechinmalarni aks ettirishda turli xil badiiy san'atlar va badiiy tasvir vositalaridan ustalik bilan foydalangan.

Ikkinchi misrada *eski jahon* birikuvini takror qo'llab **takrir** san'atini yuzaga keltirgan va bu orqali shoir fikrini kuchaytirgan va emotsionallikni oshirgan. Ayni takrir san'atini uchinchi va to'rtinchi misralarda qo'llagan (*bir she'r kerak*) va shoirlik mashaqqati hamda ularning dunyosini aks ettirishda mohirlik bilan foydalangan. *She'rni issiq nonga* o'xshatishi esa **tashbih** san'atini yuzaga keltirgan. Buni yuzaga keltiruvchi vosita *kabi* o'xshatish so'zidir. *Mezbonga* murojaat qilish orqali **nido** san'atini yuzaga keltirgan.

Daryo mavjlariga yozilmish g'azal,

Maysalar egilib o'qiydir kitob.

Shodlanib xandalar otar bir lahza,

Bir lahza oh tortib qo'yadir oftob.

(T. 4-bet)

Badiiy adabiyotda hissiy kechinmalarni ifodalashda she'riy san'atlar eng yaxshi vositadir. Mazkur bandda shoir **tashxis**ning go'zal na'munasini yaratgan. *Maysaning egilib kitob o'qishi, oftobning goh xandon otib, goh oh tortishi* insonlarga xos harakatlar va holatlar bo'lib, bu badiiy adabiyotda tashxis san'atini yuzaga keltiradi. *Xandon otmoq va oh tortmoq* aslida zid ma'noli so'zlar bo'lmay, balki kontekstda zidlik yuzaga kelgan. Bu qo'llanish **tazod** san'atini shakllantiradi. *Bir lahza* birikuvining uchinchi misraning oxiri va to'rtinchi misraning boshida takror holatda qo'llanishi **takrir** san'ating go'zal na'munasidir. Ushbu bandda takrir san'atini shoir zidlikni shakllantiruvchini elementlarni bog'lash hamda ma'noni yana ham kuchaytirish maqsadida qo'llagan.

Navoiy baytiga o'xshaydi yo'llar,

Bu toshlar Hamzaning qotili, hayhot!

Nahotki, umrbod o'rtasa o'ylar,

Umrbod zanjirband etsa xotirot!

(T. 6-bet

Shoirning xayol dunyosi keng, u yo'llardan ham hikmat va saboq izlaydi. Ayni shu yo'llarni Navoiy baytiga o'xshatib **tashbih** san'atini shakllantirgan. Mazkur bandning dastlabki misrada ijodkor shoirlik qismati haqida ta'sirli va asosli fikrlarni bildirib, turkiy adabiyotini rivojiga hissa qo'shgan XV asrda yashab ijod qilgan Alisher Navoiy nomini keltiradi. Keyingi misrada esa XX asrda yashab ijod etgan, millat erki, uning ma'rifati, ma'naviyati va axloqiy qadriyatlarida yo'lida umrini va ijodini bag'ishlagan ma'rifatparvar Hamza Hakimzoda Niyoziy nomi qo'llangan. Badiiy adabiyotda mashhur allomalar nomi she'riy baytda qo'llanishi **talmih** san'atni hosil qiladi. Mazkur baytda yana bir tarixiy voqeaga ishora qiluvchi talmih mavjud: Hamzaning ba'zi asarlaridagi ayollarni ma'rifatga chorlash g'oyalarni johil kimsalar noto'g'ri talqin qilib, 1929-yil 18-avgustda to'shbo'ron qilib o'ldirishgan. Shoir aynan shu voqeaga ishora qilmoqda. So'nggi misrada *xotirotning umrbod zanjir etish* holati ifodalangan, bu **tashxis** san'atini yuzaga keltiradi.

Xulosa.

Uchinchi bobda Rauf Parfi ijodi uchraydigan birdan ortiq sheʼriy sanʼatlar haqida fikr yuritdik. Ijodkor sheʼriyatida shunday naʼmunalar borki, cheksiz maʼno bilan birga shoir, hatto, oʻzi sezmagan holda juda koʻplab sheʼriy sanʼatlari qoʻllagan. Birgina “Bugun shoh erurman, tilak tilagil, Bugun men gadoman, tingla, malagim” baytida olti xil sanʼat mohirlik bilan qoʻllanganligiga guvoh boʻldik. Shoir ijodida bunday naʼmunalar talaygina. (Nola aylab Semurgʻ dedi: E, bedor, Chorlar seni biru borim. Bor, ishon! Sen fano vodiysi, Haq qoshiga bor, Yer-u osmon choʻkmakdadur benishon. (T. 2-bet) bandida ham talmih, intoq, nido, ishtiyoq, tazod sanʼatini qoʻllanganligiga guvoh boʻlamiz.)

Adibning hayotdagi voqea-hodisalarga munosabati, oʻziga xos dunyoqarashi, teran mulohazaviy idroki, tabiatdagi boshqalar koʻra olmagan ranglarni nozik his etishi hamda uni goʻzal shaklda kitobxonga yetkazib bera olishi va yana koʻpgina boshqa jihatlar birgalikda badiiy asarning jozibadorligini tashkil qiladi. Ijodkorning xalq tilini chuqur bilishi, cheksiz soʻz boyligiga ega boʻlishi, soʻzning taʼsir qudratini his eta olishi, har bir soʻzni maʼno noziklarigacha ilgʻab olishi soʻz oʻyinlaridan ustalik bilan foydalana olishi alohida oʻrin tutadi.

Isteʼdodli oʻzbek shoiri Rauf Parfi sheʼriyat osmonida tutgan oʻrni beqiyosdir. Uning sheʼrlarida ilgari surilgan gʻoyalar va soʻz qoʻllash yoʻsinlari etirofga sazovordir. Shoir ijodini oʻrganish, uning ijod qirralarini ochish, tahlil qilish, uning fikrlarini yana bir ilgʻashimizga asos boʻladi.

Umumiy xulosa.

O'zbek she'riy madaniyatiga sarbast she'r tuzilishini olib kirdi, deyish ancha cheklanganlik bo'lurdi. Sarbast she'r tuzilishi turkiy she'r uchun butkul begona emasligini, qadimiy she'r madaniyatimiz tarixida mavjud bo'lganligini ijodiy tajribasi misolida tasdiqladi. Ularni XX asr o'zbek xalqining nafaqat orzu armonlari, dardu-alamlari, shu bilan barobar yana tafakkur madaniyati, qalb zarblari, o'zbekona milliy ruhi bilan boyitdi. Sonet, xokku, tanka va h.z. jahon she'riyati janrlariga, poetik shakllariga milliy o'zbekona ruh olib kirdi. Tomirlariga turkona harorat, olovli so'z va tafakkur nurini qo'shdi.

Raufona oksimoron obrazlar sistemasini yaratdi. She'riy satrlar musiqiyligini kuchaytirishda hayratangiz izlanishlar olib boradi. Satrlar takrorida nafaqat fikriy ko'chimlarni, yana his-tuyg'ular to'ldirishini, kechinmalar po'rtanasini vujudga keltiradi. Ushbu jarayonda emostional holat va kayfiyatlardagi, ruhiy kechinmalardagi hislar oqimi she'r musiqiyligini hosil qiladi. Bu — yolg'iz Rauf Parfi ijodiy izlanishlari uchun xos bo'lgan betakror samaradir. Satrlardagi ichki qofiyalanishi, alliterastiya — ohangdosh so'zlar bilan boyitilishi she'rning emostional ta'sir kuchini oshiradi. Tafakkur to'ldirishining ong-shuurlarda mixlanib qolishini tahminlaydi, asoslaydi¹.

Biz mazkur magisrtlik dissertatsiyamizda Rauf Parfi ijodidagi ma'naviy, lafziy va bir paytning o'zida qo'llangan bir necha badiiy san'atlarning shoir ijodida qo'llanishi haqida fikr yuritdik. She'riy san'atlarni tahlil qilish jarayonida shoirning so'z qo'llash mahoratidagi o'ziga xoslik, har bir satrida olam qadar ma'rifat, ma'naviyat mavjudligi hamda chuqur falsafa borligiga guvoh bo'ldik. Chunonchi, har bir she'riy san'atni ijodkor o'zi anglamagan holda qo'llagan, ammo misralardagi ma'no shoirning o'zi bilgan, yetkazib bermoqchi bo'lgan ma'naviy olamidan darak beradi. Faqat shoirga xos badiiy o'xshatishlar, oksyumoron, badiiy tasvir vositalarining ustalik bilan qo'llanishi badiiy

¹ Rahimjonov N. Iymon asiri. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.

san`atlardagi jiloni ham ta`minlab bergan. Biz tadqiqod jarayonida shoir ijodida qo`llangan yigirmadan ortiq she`riy san`atlarning o`ziga xos badiiy va ilmiy xususiyatlarini yoritishga harakat qildik.

Rauf Parfi oddiy xalqni ma`naviyat ko`zgusiga yorqinlashtirgan bo`lsa, adabiyotshunoslar ko`nglidagi she`riyat olivini alangalatdi, haqiqiy ijodkorlarga yangicha usul va g`oyalar taqdim etdi, yosh shoirlarga esa ijodi ila ustozlik qildi va qilayotir. Uning ijodida hamma ilg`ay olmaydigan shunday fikrlar borki, hali she`riyat deb atalmish qasrning biror toqiga bunday betakror chizgilar chizilmagan. Uning dunyosi va she`riyatgi oshnoligidan hali-hanuzgacha ijodkorlar ilhom oladi. Yosh shoir Ahad Qayum ta`biri bilan aytganda Rauf Parfi she`riyati ham xuddi o`zi singari ruhiyatni tushunish qiyinligi bilan boshqalardan ayrochadir:

Siniq stolga,
Soqoligacha terga botardi shoir...
u bo`m-bo`sh xonaga..
UF-UF... Aks sado qaytardi shoirga:
Piyolada eng so`nggi qasamin ichib...
Qichqiradi
Rauf Parfi o`zini shunday izlardi....

“Shoir bu yorug` dunyoda yashayotgan Insonning cheksiz-chegarasiz kechinmalarini so`z bilan ifoda qilguvchi shaxsdir”, — deydi Rauf Parfi. — Rauf Parfi ayni shu mas`uliyatli ishni ado eta olgan va o`zining so`z rassomi ekanligini ko`rsata olgan. U ranglarni kamalakdan izlamaydi, balki o`zi hech qayerda uchramaydigan ranglar kashf qilib, sur`atlar chizadi, ko`ngilni tasvirlashni o`zining buyuk maqsadi deb biladi. Elning shunday jonkuyar farzandi asrlar o`tsa-da, o`zining purma`no ijodi bilan mangu yashaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Karimov I A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. Toshkent. 2008.
2. Karimov I A. Vatan ravnaqi uchun barchamiz mas'ulmiz .Toshkent. 2001.
3. Karimov I A. Barkamol avlod orzusi. Toshkent: “sharq”, 1999.
4. Abdurahmonov H, Eshonqulov E. O`zbek tili .Toshkent.1982.
5. Abduraxmonov H, Mahmudov N. So`z estetikasi. Toshkent:”Fan”, 1981.
6. Abdulkarim Bahriddin. Rauf Parfi: “Men kuyinib so`zlayman,xolos” WWW. ziyouz. com kutubxonasi
7. Aliqulov A. Leksemalarning tasnifiga doir. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali.2005. 2-son.
8. Asqad Muxtor. “Sharq yulduzi”, 1-son
9. Boboyev T. She’r ilmi ta’limi. Toshkent,1996.
10. Haydarov A.Badiiy uslubning fonetik vositalari.”Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2007. 2-son.
11. Hojiahmedov.A. Mumtoz badiiyat malohati. T. 1999.
12. Hojiahmedov A. She’riy san’atlarni bilasizmi? Toshkent. 1999
13. Hojiahmedov A. She’riy san’atlar va mumtoz qofiya. Toshkent: “Sharq”,1998.
14. Husayniy Ataulloh. Badoyi us-sanoyi. Toshkent. 1989.
15. Is’hoqov Y. Mubolag`a // O`zbek tili va adabiyoti. 1972. 5-son.
16. Jamolxonov H. Hozirgi o`zbek adabiy tili. Toshkent: “To`lqin”,2005.
17. Jamoa mualliflari. O`zbek tili gramatikasi II tom. Toshkent. 1976.
18. Jabborov V. Tajnis va kontaminatsiya xususida. “O`zbek tili va adabiyoti” jurnali. 2011-yil, 3-son.
19. Mirzayev M, Eshonqulov Y.Hozirgi o`zbek adabiy tili.Toshkent.Mashqlar to`plami.
20. Rahimjonov N. Iymon asiri. WWW. ziyouz. com kutubxonasi
21. Rauf Parfi poetik olamiga bir nazar. “Til va adabiyot ta’limi” jurnali. 2013-yil, 3-son
22. Qosimov B, To`xliyev B, Yo`ldoshev Q. Adabiyot 10-sinf uchun darslik .

23. Qilichev E. Badiiy tasvirning leksik vositalari. Toshkent: "Fan", 1982.
24. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro. 2009.
25. Qilichev E. O'zbek tilining amaliy stilistikasi. Toshkent: "O'qituvchi", 1992.
26. Qo'ng'irov R. O'zbek tilining tasviriy vositalari. Toshkent: "Fan", 1977
27. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. Toshkent, 2006.
28. Sulaymonova G. Sinonimik ot so'zarning polifunksionalligi. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2009. 12-son.
29. Sultonova M. Tilshunoslikning noadabiy qatlamida sleng so'zlar. "Til va adabiyot ta'limi" jurnali. 2007. 3-son.
30. Tursunov U, Muxtorov J, Rahmatullayev Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1992.
31. To'xliyev B, Shamsiyev M, Ziyodova J. O'zbek tili o'qitish metodikasi. Toshkent. 2006.
32. Yo'ldoshev M. Badiiy matn va uning lingvopoetik tahlili asoslari. Toshkent : "Fan", 2007.
33. Shoabdurahmonov Sh va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent. 1980.
34. Ulug'bek Hamdam. She'riyatning buyuk yo'lchisi. WWW. ziyouz. com kutubxonasi
35. Zaripov B. Alisher Navoiy asarlari tilida zoonimlar. "Fan", Toshkent. 2007.
36. O'zbek tili antonimlarning izohli lug'ati. Rahmatullayev Sh va boshqalar. Toshkent: "O'qituvchi", 1980.
37. O'zbek tili sinonimlarining izohli lug'ati. Hojiyev A. Toshkent. 1970.
38. O'zbek tili omonimlarining izohli lug'ati. Rahmatullayev Sh. Toshkent: "O'qituvchi", 1984.
39. O'zbek tilining izohli lug'ati. 2 jildlik. Moskva, 1981.
40. O'zbek tilininig izohli lug'ati. 5 jildlik. Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti, 2006.

41. Rauf Parfi. Ona Turkiston. Internet. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.
42. Rauf Parfi. Sabr daraxti. Toshkent: "G`afur G`ulom", 1986.
43. Rauf Parfi. Tavba. Internet. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.
44. WWW. ziyouz. com kutubxonasi.

Navoiy davlat pedagogika instituti Magistratura
bo'limi O'zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
bitiruvchisi Rajabova Nafisaning "Rauf Parfi
she'riyatida badiiy san'atlar" mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga Navoiy davlat
konchilik instituti dotsenti M.Ravshanov

T A S H Q I T A Q R I Z I

1. Rauf Parfi iste'dodli o'zbek shoiri. Uning ijodini anglashda ijodkor asarlarining til xususiyatlariga hamda undagi badiiy san'atlarga ahamiyat qaratish lozim. Bitiruvchi mazkur masalani magistrlik dissertatsiyasiga mavzu qilib olishi bejiz emas.

2. Tadqiqot jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilgan:

1) Mavzuga oid monografiya va ilmiy maqolalar ko'rib chiqilgan. (Hojiahmedov A, Is'hoqov Y, Rahimjonov N, Zaripov B va boshqalarning ishlaridan foydalanilgan);

2) O'quv adabiyotlari va lug'atlar bilan tanishgan (Hojiyev A, Rahmatullayev Sh va boshqalar).

3. Ishning kompozitsion qurilishi izchil. Ish: Kirish, Asosiy qism, I bob (Rauf Parfi she'riyatida qo'llangan ma'naviy san'atlar), II bob (Lafziy san'atlarning shoir ijodidagi o'rni), III bob (Rauf Parfi ijodidagi birdan ortiq qo'llangan san'atlar) umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tuzilgan.

4. Ishda yozma nutqning me'yoriy talablariga: imlo savodxonligiga alohida e'tibor qilgan.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida tadqiqotning barcha talablariga amal qilingan: mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati va boshqalar o'z o'rnida berilgan. Tegishli ilmiy va o'quv adabiyotlaridan, ilmiy maqolalardan samarali foydalanilgan. Tadqiqotchi olimlarning fikrlarini mushohada qilib, o'z xulosalarini chiqargan.

Bunday xulosalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ham yo'q emas: ulardan dars o'tish jarayonida, amaliy mashg'ulot darslarida foydalansa bo'ladi.

Demak, mazkur tadqiqot barcha Nizom talablariga to'liq javob beradi, mazkur magistrlik dissertatsiyasi ishini yakunlangan tadqiqot sifatida ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

dots. M.Ravshanov

Navoiy davlat pedagogika instituti
Magistratura bo'limi O'zbek tili va adabiyoti

mutaxassisligi bitiruvchisi Rajabova Nafisaning
“Rauf Parfi she’riyatida badiiy san’atlar”
mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasiga filologiya
fanlari nomzodi R.S.Nuritdinova

T A Q R I Z I

Soʻz sanʼatkorining badiiy mahoratini oʻrganish, ijodkorning fikr doirasi hamda asarlarining til xususiyatlarini ilgʻashga ham imkon beradi. Badiiy mahorat tushunchasi til va uslub meʼzoni hamdir. Ijodkorning soʻz qoʻllash mahoratini ochish – nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslikning ham muhim vazifasiga kiradi.

Rauf Parfi isteʼdodli shoir. Uning sheʼrlarining til xususiyatlarini ochishda badiiy sanʼatlarning oʻrni beqiyosdir. Bitiruvchi mazkur masalani magistrlik dissertatsiyasiga mavzu qilib olishi ham bejiz emas.

Dissertatsiya kirish, olti faslni oʻz ichiga olgan uch mustaqil bob, xulosa va adabiyotlar roʻyxatidan iborat.

Ishning birinchi bobi „Rauf Parfi she’riyatida qoʻllangan maʼnaviy sanʼatlar“ deb nomlanib, unda shoir ijodidagi talmih, tashbih, istiora, husni taʼlil, mubolagʻa, rujuʼ va boshqa maʼnaviy sanʼatlar haqida fikr yuritilgan. Tadqiqotning ikkinchi bobi shoir ijodida lafziy sanʼatlarning qoʻllanishiga qaratilgan boʻlib, bu bobda Rauf Parfi sheʼrlarida qoʻllangan tajnis, tazod, takrir, mukarrar, tardu aks, ishtiyoq, tanosub, talmiʼ sanʼatlari tahlilga tortilgan va ijodkorning badiiy mahorati ochib berilgan. Uchinchi bobda ijodkor sheʼrlarida bir paytda qoʻllangan birdan ortiq sheʼriy sanʼatlar tahlil qilingan. Bu bobda ijodkorning bir baytning oʻzida olti, hattoki, yettita sheʼriy sanʼatlarning qoʻllanishini magisrtant tahlil qilib, ayni shu orqali ijodkorning oʻziga xos badiiy mahoratini ham ochib bergan.

Har bob yuzasidan xulosalar hamda ish yuzasidan umumiy xulosa chiqarilgan. Ishda ba`zi imloviy xatolar mavjud, ammo bu ishning qimmatini pasaytirmaydi.

Magisrtant Rajabova Nafisaning “Rauf Parfi she`riyatida badiiy san`atlar ” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi barcha Nizom talablariga to`la javob beradi va ishni yakunlangan tadqiqot sifatida ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Taqrizchi:

f.f.n. R.S.Nuritdinova

Navoiy davlat pedagogika instituti Magistratura
bo`limi O`zbek tili va adabiyoti mutaxassisligi
bitiruvchisi Rajabova Nafisaning “Rauf Parfi

she'riyatidagi badiiy san'atlar" mavzusidagi
magistrlik dissertatsiyasiga ilmiy rahbar

XULOSASI

Rauf Parfi ijodi nafaqat o'zining badiiy mushohadasi, balki til xususiyatlari bilan ham katta ahamiyatga ega. Bitiruvchi mazkur masalani magistrlik dissertatsiyasiga mavzu qilib olishi bejiz emas.

Magistrant tadqiqot jarayonida quyidagi ishlar amalga oshirilgan: Mavzuga oid monografiya va ilmiy maqolalar ko'rib chiqilgan. (Hojiahmedov A, Is'hoqov Y, Rahimjonov N, va boshqalarning ishlaridan foydalanilgan);

Magistrant dissertatsiyani yozish jarayonida shoir ijodidagi badiiy san'atlarni tahlil qilish bilan birga undagi falsafiy fikr, mulohazalarni ochib berishga harakat qilgan.

Mazkur magistrlik dissertatsiyasida tadqiqotning barcha talablariga amal qilingan: mavzuning dolzarbligi, maqsad va vazifalari, amaliy ahamiyati va boshqalar o'z o'rnida berilgan. Tegishli ilmiy va o'quv adabiyotlaridan, ilmiy maqolalardan samarali foydalanilgan. Tadqiqotchi olimlarning fikrlarini mushohada qilib, o'z xulosalarini chiqargan.

Ishning kompozitsion qurilishi izchil. Ish: Kirish, Asosiy qism, I bob (Rauf Parfi she'riyatida qo'llangan ma'naviy san'atlar), II bob (Lafziy san'atlarning shoir ijodidagi o'rni), III bob (Rauf Parfi ijodidagi birdan ortiq qo'llangan san'atlar) umumiy xulosalar va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tuzilgan. Ishda yozma nutqning me'yoriy talablariga, imlo savodxonligiga alohida e'tibor qilgan.

Demak, mazkur tadqiqot barcha Nizom talablariga to'liq javob beradi, mazkur magistrlik dissertatsiyasi ishini yakunlangan tadqiqot sifatida ochiq himoyaga tavsiya etaman.

Ilmiy rahbar:

f.f.n Zaripov B P